

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI

**EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA
QARSHI KURASHNING MA'NAVIY-
MA'RIFIY ASOSLARI**

FANIDAN

O'QUV - USLUBIY MAJMUA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT MUXANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI

«Tasdiqlayman»

Termiz davlat muhandislik va
agrotexnologiyalar universiteti rektori
v.v.b. _____ B.Primkulov

«____» _____ 2024- yil

EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI
KURASHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY ASOSLARI

FANIDAN
O'QUV - USLUBIY MAJMUA

Termiz-2024

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti ilmiy Kengashining 2024-yil 04-sentyabrdagi 1-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari» fani dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv-uslubiy majmua- Termiz, TDMAU, 2024 y.,120 b.

Tuzuvchi: TDMAU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti v.v.b: **T.Ch.Xoliyarov**

Taqrizchilar:

T.Annayev – tarix fanlari nomzodi, dotsent

X.Xudayberdiyev – falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu o'quv-uslubiy majmua kafedraning 2024-yil 29-avgust
“01” – sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Mazkur o'quv-metodik majmua (UMM) talabalariga «Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari» fanini o'qitish uchun tuzilgan bo'lib, DTS talablaridan kelib chiqib, o'quv rejasi va dasturiga muvofiq ishlab chiqildi. Unda talabalarga ekstremistik va terroristik harakatlarning kelib chiqishi, mohiyati, ularning asl maqsadlari, taraqqiyotga salbiy ta'sirini ochib beruvchi va ularda bunday tahdidlarga qarshi g'oyaviy kurashish salohiyatini tarbiyalovchi bilimlar beriladi. Shu bilan birga o'quv-metodik majmuada fanning maqsad va vazifalari, talaba egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar aniq yoritib berilgan bo'lib, ma'ruzalar, tayanch so'z va iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, fan bo'yicha nazorat savollari (yozma, og'zaki va test), yakuniy xulosalar, fanda yechimini kutayotgan ilmiy muammolar hamda informatsion-metodik ta'minot: darslik va qo'llanmalar, internetdan olish mumkin bo'lgan axborotlar saytlari va qo'shimcha ma'lumotlar keng yoritib berilgan.

*Ushbu o'quv-uslubiy majmua TDMAU Ilmiy Kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan
va nashrga tavsiya etilgan. “___” 2024-yil №-“__” bayonnomasi.*

© “TDMAU“ O'quv-uslubiy majmua, 2024 y.

MUNDARIJA

№	Bo'limlar	Betlar
1.	Kirish	
2.	Ma'ruzalar mavzusi	
3.	Jahondagi yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari.....	
4.	Markaziy Osiyodagi barqarorlikka tahdid solayotgan ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari.....	
5.	O'zbekistonning ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati.....	
6.	Xalqaro terorizmning moliyaviy va iqtisodiy manbalari	
7.	Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy huquqiq asoslari.....	
8.	Xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi ma'rifat bilan kurashishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish borasidagi vazifalar (Sh.M.Mirziyoyevning BMT 72 sessiyasidagi nutqi asosida).....	
9.	Mustaqil ta'lif mashgulotlari.....	
10.	Fan bo'yicha nazorat savollari (Oraliq nazorati, yozma ish varintlari va testlar).....	
11.	Fanni o'ziga xosligiga qarab o'rganish bo'yicha materialllar.....	

Kirish

Mazkur majmua «Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslar» fanidan Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, uni yaratishda yetakchi xorijiy OTMLari o’quv dasturidagi asosiy adabiyotlardan foydalanildi.

Fanni o’qitishdan maqsad – ekstremistik va terroristik harakatlarning kelib chiqishi, mohiyati, ularning asl maqsadlari, taraqqiyotga salbiy ta’sirini tushuntirish va ularda bunday tahdidlarga qarshi g‘oyaviy kurashish salohiyatini tarbiyalashdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari: - XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dunyodagi sodir bo‘lgan o‘zgarishlar hamda ekstremizm va terrorizmning kishilik jamiyatni boshiga solayotgan tahdidlari bilan tanishtirish, dunyoviy davlatning dinga munosabati, mamlakatimizda olib borilayotgan diniy siyosatning asosiy tamoyillari bilan tanishtirish, talabalarni vatanparvarlik, tinchliksevarlik, ijtimoiy barqarorlikni ta’mindan etishda har qanday yot va begona g‘oyalarga qarshi kurashish ko‘nikmalari ruhida tarbiyalash va shu kabilar.

Fanning asosiy manbalari:

Har bir fan o‘z manbalariga ega bo‘lib, ushbu manbalar asosida rivojlanganidek, mamlakat Prezidenti, oliy vakillik organi hamda vakolatli davlat hokimiyat idoralari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjalari, ekstremizm va terrorizm tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati, ekstremistik va terrorchilik harakatlariga bag‘ishlangan darsliklar, monografiya va o’quv qo’llanmalar Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari fanining manbalari bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu o’quv-metodik majmuasi (UMM) «Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslar» fanini o’qitish uchun tuzilgan bo’lib, DTS talablaridan kelib chiqib, o’quv rejasiga dasturiga muvofiq ishlab chiqildi. Unda talabalarga ekstremistik va terroristik harakatlarning kelib chiqishi, mohiyati, ularning asl maqsadlari, taraqqiyotga salbiy ta’sirini ochib beruvchi va ularda bunday tahdidlarga qarshi g‘oyaviy kurashish salohiyatini tarbiyalovchi bilimlar beriladi. Shu bilan birga o’quv-metodik majmuada fanning maqsad va vazifalari, talaba egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko’nikma va malakalar aniq yoritib berilgan bo‘lib, ma’ruzalar, tayanch so’z va iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, fan bo‘yicha nazorat savollari (yozma, og’zaki va test), yakuniy xulosalar, fanda yechimini kutayotgan ilmiy muammolar hamda informatsion-metodik ta’minot: darslik va qo’llanmalar, internetdan olish mumkin bo‘lgan axborotlar saytlari va qo’shimcha ma’lumotlar keng yoritib berilgan.

Mavzu: Jahondagi yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari

Reja:

1. Markaziy Osiyoga tahdid solayotgan mintaqaviy, diniy tusdagi tahdidlar va ularning geosiyosiy xarakteri.
2. Markaziy osiyoda yetakchi davlatlarning strategik manfaatlari.

Tayanch so‘z va iboralar

Markaziy Osiyo, milliy manfaatlар, mafkura, geostrategiya, raqobat, terroristik tashkilotlar, qurol savdosi, odam savdosi, narkotik savdosi, moliyaviy uyushmalar, globallashuv.



1. Markaziy Osiyoga tahdid solayotgan mintaqaviy, diniy tusdagi tahdidlar va ularning geosiyosiy xarakteri.

Bugungi Markaziy Osiyo juda boy tabiiy - xomashyo zaxiralari, cheksiz bozor va sarmoya sarflanadigan muhim mintaqqa hisoblanadi. Uning maydoni, unumdor yer, iqlimi, sersuv daryolari, tabiiy zahiralari, transport kommunikativ tizimi, G‘arb va Sharqni, Shimol va Janubni bog’lovchi mintaqqa ekanligi albatta

qator siyosiy kuchlarni qiziqtiradi. 2017-yil 10-noyabrdan Samarqand shahrida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlangan nutqida Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Markaziy Osiyo - bu haqiqatdan ham noyob imkoniyatlar va hali ishga solinmagan ulkan salohiyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan mintaqadir"¹. Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo'ldan borishlariga bog'liq. Hozir xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotgan davlatlar buni e'tirof etmasliklari mumkin emas. Albatta jahonda jadal rivojlanayotgan sanoat, unga sarflanayotgan tabiiy zaxiralar, zarur transport tizimi, yangi bozorlami o'rganish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak Markaziy Osiyo davlatlarining imkoniyatlari chuqur tahlil qilinmagan.

Bu o'rinda boy tabiiy resurs konlari, neft, gaz, oltin, uran, nodir uglevodorodlar, ayniqsa Kaspiy havzasining zahiralari cheksiz ahamiyat kasb etadi. G'arbning qator manbalarida keltirilishicha Markaziy Osiyo hududida aniqlangan neft-gaz konlari zaxiralari jahondagi umumiy zaxiralarning 2,6 % ini tashkil qiladi. Energiya iste'moli kun sayin ortayotgan hozirgi paytda bu ko'rsatkichlar nihoyatda kata ahamiyat kasb etadi. Shu sabab Markaziy Osiyo tabiiy, yoqilg'i-neft zaxiralarining insoniyatning keljakdagi iqtisodiy taraqqiyoti uchun qay darajada muhimligi geosiyosiy jihatdan jiddiy ziddiyatlarning sababiga aylanib qolmoqda. Masalaning bu jihatni xususida Sh.Mirziyoyev ko'rsatib o'tganidek "Ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishmoqda, beqarorlik va qarama-qarshilik o'choqlariga tutash bo'lgan ushbu mintaqqa yaqin va uzoq xorijda ro'y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta'sirini his etmoqda"².

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.-274 b.

² Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.-264 b.

O‘zbekiston uchun uning keng ma’nodagi milliy xavfsizligi nimani anglatadi, biz bu xavfsizlikni qanday tasavvur qilish lozim?

Birinchidan, O‘zbekiston xavfsizlikning yaxlitligi haqidagi asosiy tamoyillardan birini to’la qo‘llab - quvvatlaydi. Xavfsizlik - uzlusiz holatdir, hadsiz - hududsizdir;

Ikkinchidan, “Sovuq urush” barham topganidan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solmoqda. Ayniqsa, bunday qarama - qarshiliklar ayrim mamlakatlar qo'lida ularning o‘z manfaatlarini va ta’sir doiralarini saqlab qolish va himoya qilish uchun yoki strategik kuchlar muvozanatini o‘z foydalariga o'zgartirish uchun qudratli siyosiy ta’sir vositasiga aylanmoqda. Har qanday mintaqaning hal qilinmagan va gazak olib ketgan muammolari butun dunyoda zanjir reaksiyasini keltirib chiqarishi munikin. Vaziyatning beqarorlashuvi esa kundan - kunga aniq - ravshan bo‘lib borayotgan yangi geografik - siyosiy muvozanatni buzish xavfini keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, O‘zbekiston o‘zining jo‘g‘rofiy - siyosiy holati jihatidan jamoaviy xavfsizlik tizimi izchil yo‘lga qo‘yilmagan mintaqada joylashgan. Bu ham tahdid tug‘diruvchi sababdir. Yuqorida aytilganidek O‘zbekiston amalda Fors ko‘rfazi, Kaspiy dengizi havzasasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazidir. Ya’ni, bu yarim halqa atrofida butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida yaqin yillarda Yevroosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol o‘ynaydigan energiya zaxiralari mavjud.

To‘rtinchidan, yana bir tahdid manbai shu bilan bog’liqki, O‘zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi. Buning ustiga, yurtimiz mintaqadagi ekstremizm, etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag’batlantirib kelinayotgan, ichki mojaro avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o‘chog‘i bilan chegaradosh. Qo‘sni Tojikistonda fuqarolar urushi (1992-yil 5-may – 1997-yil 27-iyun) bo‘lib o’tganligini unutmaslik kerak. Mustaqillikning dastlabki yillarida uning keng yoyilib ketish xavfi ham vujudga kelgandi. Bu davlatlarda xorijdagi eng ko‘p sonli hammillatlarimiz istiqomat qilib turganligini hisobga olmaslik mumkin emas.

Beshinchidan, mintaqaviy nizolar ko‘pincha terrorizm va zo‘ravonlik, narkobiznes va qurol-yarog‘ bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy suratda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbaiga aylanib bormoqda. Bunday hodisalar davlat chegaralarini tan olmaydi.

Oltinchidan, Markaziy Osiyoda ekologik va yadroviy xavfsizlik muammolari alohida e’tibori talab qiladi. 2014 yil 6 may kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohida tom ma’nodagi tarixiy voqyea yuz berdi – mazkur tashkilot tuzilganidan buyon birinchi marotaba besh yadroviy davlat – AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy va Rossiya yakdillik bilan va bir paytning o’zida muhim xalqaro hujjatni – Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona barpo etish to’g’risidagi Shartnomaga Xavfsizlik kafolatlari to’g’risidagi Protokolni imzolashdi. Ushbu qadam O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1993 yili BMT Bosh Assambleyasi minbaridan turib ilgari surilgan tashabbusning to’la amalga oshirilishini nihoyasiga yetkazgani holda, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga hamda yadro quroli tarqalmasligi va qurolsizlanish bo'yicha global rejimning kuchayishiga ulkan hissa qo'shdi. Markaziy Osiyo mintaqasi 2014-yilda yadroviy qurollardan xoli hududga aylangan bo'lsada Markaziy Osiyoni qurshab turgan mamlakatlar asosan yadro quroliga ega mamlakatlar hisoblanadi.

Ko‘rinib turibdiki, hozirning o‘zidayoq ko‘zga tashlanayotgan va keyinchalik vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar ko‘lami keng. Mintaqaviy mojarolarning oqibatlari ancha sezilarli shaklga ega. Umuman olganda Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning “O’zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarda ko‘rsatib o’tilganidek mintaqaviy mojarolarning, ekstremizm va terrorizmning, buyuk davlatchilik shovinizminng mintaqamiz xavfsizligiga tahdidi juda katta. Agar asarga diqqat bilan nazar tashlaydigan bo‘lsak quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin: - birinchidan, I.Karimovning “O’zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asari” da yangi ming yillik arafasida insoniyatni kutayotgan keng qamrovli global muammolami ilgari surilishi,

tahlil etilishi, ularni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni bartaraf etish borasidagi vazifalarning yoritilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, biz yashayotgan mintaqaning geostrategik, geosiyosiy manfaatlari nuqtai nazaridan har bir masalaning yechimiga e'tibor qaratiladi. Uchinchidan, tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va ishonch olg'a harakatlantirishiga alohida urg'u berilgan, va bu hamkorlikni ta'minlashdagi vazifalar, uning istiqbollari keng yoritilgan.

2. Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlarning strategik manfaatlari.

Markaziy Osiyo mintaqasi atrofidagi geosiyosiy jarayonlar sobiq ittifoq parchalangach mana bir necha o'n yillik tarixni bosib o'tdi. Jahon siyosatining subyektlari bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlariga bo'lgan qiziqishlari, nafaqat qiziqishlari balki bu mintaqada ustuvor imkoniyatga ega bo'lish uchun intilishlari boshlandi. Bu ustuvor mavqe uchun kurashda bir tomonidan qachonlardir mavqeni boy bergan Rossiya, ikkinchi tomonidan ulkan sanoatga ega bo'lgan Xitoy, uchinchi tomonidan mintaqani o'zining ajralmas qismi deb hisoblovchi islom dunyosi va to'rtinchi tomonidan qator xizmatlarning eng katta iste'molchisi hisoblangan G'arb dunyosi faol kirishmoqda. Shunday holatda, ushbu tomonlarning mintaqqa davlatlari rivojlanishiga ta'sirining nisbati doimo sezilarli o'zgarishlarga duchor bo'lib turdi. Bu davr endigina mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlarining mustahkamligini sinash davri bo'ldi.

Shu munosabat bilan shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, Markaziy Osiyo faqatgina mintaqada geosiyosiy tenglik va barqarorlik saqlanib qolgandagina bir maromda rivojlanishi mumkin. Shuning uchun mintaqada xavfsizlik ta'minlanishining asosiy ustivor yo'nalishi mintaqqa davlatlarining kuch markazlari ta'siri doirasiga kirib qolishini oldini olish, islom dini niqobidagi radikalizmi g'oyalarining tarqalishi, mintaqaviy mojarolar, separatizm kabi tahdidlani bartaraf etish hisoblanadi.

Dastlabki davrlarda yetakchi kuch markazlarining Markaziy Osiyoga bo'lgan manfaatlari asta-sekin rivojlanib bordi. Bu davrda aksariyat davlatlar mintaqqa davlatlari va uning iqtisodiy salohiyati, mintaqaning geosiyosiy istiqboli haqida

tizimli tasavvurga ega emasdilar. Shuning uchun bu davlatlarning mintaqadagi siyosati bilvosita xarakter kasb etib, ularning mintaqaga nisbatan manfaatlari shakllanish bosqichida turardi. AQSH bu davrda asosan ikkita masalada o‘z xavotirini bildirgan. Birinchisi, mintaqada (Qozog‘iston) yadro qurolining mavjud bo’lganligi; Ikkinchisi, mintaqada antiamerikancha, ya’ni despotik yo’nalishidagi siyosiy rejimlarning shakllanishi. Shuning uchun, AQSH ning dastlabki asosiy maqsadi mintaqadagi yadro qurolini yo‘q qilish va yadroviy texnologiyalar elementlarini boshqa davlatlarga sotilishiga yo’l qo’ymaslikdan iborat edi. Shu bilan birga, ushbu maqsad sari intilishda AQSH ning mintaqaga bo’lgan manfaati asta sekinlik bilan kamayib bordi. AQSH ning Markaziy Osiyo mintaqasida antiamerikacha g‘oyani tarqalishi borasidagi xavfsirashlari mintaqada davlatlari siyosiy rejimlarining dunyoviy yo’nalishdan borishi va Rossiyaning mintaqada zaifligi oqibatida vaqt o‘tishi bilan yo‘qolib ketdi. XX asrning 90 yillari o‘rtalaridan Markaziy Osiyo mintaqasi AQSH uchun chekka zona sifatida qiziqish uyg‘otadigan mintaqadan jahondagi strategik mintaqaga aylanib ulgurdi. Bunday qiziqish ikkita jihat bilan izohlanadi: birinchidan, Markaziy Osiyoning Rossiya - Xitoy - Fors - Hind yarim orolini tutashtirib turuvchi muhim geostrategik nuqta ekani bilan izohlanadi; ikkinchidan, mintaqaning tabiiy zaxiralari, energoresurslari, shuningdek transport-kommunikativ imkoniyatlari.

Oradan ma’lum bir vaqt o’tgach Markaziy Osiyo davlatlarida barqarorlik qaror topdi, qator sohalarda iqtisodiy yuksalish ta’minlandi, mamlakatlar o‘zlarining harbiy-mudofaa tizimini mustahkamlab olishdi.

Siunday ekan boshqa yetakchi geosiyosiy kuchlar singari Amerika Qo’shma Shtatlari ham Markaziy Osiyoda o‘z manfaatlariga ega bo’lgan davlatlardan biri hisoblanadi. AQSH Markaziy Osiyoni Rossiya, Xitoy, Eron bilan chegaradosh bo’lgan va Pokiston va Hindiston bilan iqtisodiy, ijtimoiy aloqalari ortib borayotgan muhim strategik mintaqqa sifatida qaraydi.

AQShning Markaziy Osiyodagi manfaatlarini tizimlashtirgan holda quyidagi tartibda berish mumkin:

- Afg'oniston muammosini hal qilishda mintaqaning imkoniyatlaridan keng foydalanish;
 - Keljakda Kaspiy hududidagi energetik resurslar ustidan nazorat o'matish;
 - Eronni nazorat qilish uchun uning Markaziy Osiyo davlatlari siyosati va iqtisodiga aralashuvini cheklash. Shuningdek Eronni izolyasiyada ushlab turish;
 - AQSH manfaatlarga zid keluvchi (uning domenantligini yo'qqa chiqaruvchi) davlatlarning (taxminan Xitoy, Rossiya) yoki ular guruhining mintaqaga ta'sirini kamaytirish;
 - Markaziy Osiyo xududida harbiy bazalar tashkil qilishga erishish;
 - AQSH sanoati uchun yangi iste'mol bozorini yaratish va shu kabilar.

AQSH da sodir etilgan 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin Afg'onistonga xalqaro koalitsion kuchlar kiritildi. Albatta AQSH ning bu o'lkada barqarorlik o'rnatishidan manfaatdor bo'lмаган kuchlar ham topildiki, natijada mintaqada tinchlik o'rnatish jiddiy qarshilikka duch keldi. Urush harakatlari cho'zilgach, Vashington tomonidan mamlakatda tinchlik o'matishning yangi muqobil yo'llari, jumladan siyosiy, iqtisodiy yo'llaridan foydalanish masalasi ilgari surildi. Bulardan biri "Katta Markaziy Osiyo konsepsiysi" hisoblanadi³. Bu konsepsiya asosan Markaziy Osiyoga (uning iqtisodiy, transport, savdo infrastrukturasi nazarda tutiladi) Afg'onistonni ham keng integrasiyasini ta'minlash zarur. Shu yo'l bilan mintaqaning qator iqtisodiy, ijtimoiy muammolarini hal etish imkon bo'ladi. Ushbu konsepsiyaning mantiqiy davomi sifatida "Yangi ipak yo'li" konsepsiysi ham ilgari suriladi. Uning muhim jihat shundaki Afg'onistonning Fors – Hind - Markiziy Osiyo - Xitoy o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatlarda muhim transport yo'lagi ekaniga alohida e'tibor qaratiladi.

Keyingi paytlarda mintaqada Rossiya va Xitoy mavqeining oshib borishidan AQSH manfaatdor emas. Shunday ekan AQSH tomoni Markaziy Osiyoning Rossiya va Xitoy bilan bo'ladigan har qanday integrasion loyihalarini qo'llab-quvvatlamaydi.

Buni Xitoy tashabbusi bilan shakllantirilgan SHHT misolida ko'rish mumkin. Shuningdek AQSH tomoni uzoq yillar davomida Markaziy Osiyo bilan

³ Sirojov O. Markaziy Osiyoda hamkorlik jarayonlari - Toshkent: "O'zbekiston", 2016. 103-b.

Rossiya o'rtasida shakllangan qator iqtisodiy munosabatlarga nisbatan muqobil hamkorlik yo'llarini, transport yo'laklarini yaratishga harakat qilmoqda. Albatta bu vazifalarning yechimi AQSH ning xalqaro maydondagi geosiyosiy, geostrategik va geoiqtisodiy manfaatlariga mos keladi.

Sobiq ittifoq parchalangan paytdanoq hududga Xitoyning ta'siri kuchli bo'lib kelmoqda. U mintaqa davlatlari, jumladan Rossiya bilan SHHT doirasida hamkorlikni rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratdi. Turli yo'nalishdagi geosiyosiy jarayonlari rivojlanishi oqibatida Markaziy Osiyodagi umumiyligi vaziyat hozirgi kunda tashqi kuchlarning kuchlar balansi bilan xarakterlanadi. Aytish mumkinki, kelajakda yirik kuchlaming mintaqadagi siyosati keyingi davrda ham geoografik determinizm⁴ tamoyiliga, hamda o'zlarining ichki va tashqi resurslaridan mintaqada qo'nim topish uchun maksimal ravishda foydalanishga asoslanadi. Xitoy Xalq Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida o'z manfaatlariga ega davlatlardan biridir. Markaziy Osiyo mintaqasi Xitoy tomonidan hayotiy muhim ahamiyatga ega hudud sifatida qaraladi. Bu yerda uning asosan iqtisodiy manfaatlarini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Albatta, Markaziy Osiyo Xitoy uchun energiya resurslari manbai sifatida ham, o'z mahsulotlarini sotilishi uchun bozor sifatida ham, g'arb bilan aloqalani olib borishda muhim transport yo'li sifatida ham muhim ahamiyatga ega,

Shuning uchun ham, Xitoy quyidagi asosiy miiliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, o'z tashqi siyosiy strategiyasini amalga oshirishga harakat qilmoqda:

- Sharqiy chegaralarida va chegaraviy hududlarida barqarorlikni saqlash (Shinjon Uyg'ur Avtonom Respublikasi, Tibet - ekstremizm, separatizm);
- qoloq sharqiy hududlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy rejalarini amalga oshirishga ta'sir etuvchi shart-sharoitlarni yaratish;
- o'sib borayotgan ulkan salohiyatli sanoati uchun energiya manbalariga kafolatlangan yo'lni ta'minlash;

⁴ Geografik determinizm – An'anaviy geosiyosatning sotsial-darvinizm bilan bir qatorda turadigan asoslaridan biri. Bu nazariya, odatda, xalqaro munosabatlarda tabiiy-geografik omillarning rolini haddan tashqari oshirib yuboradi.

- MDH va Yevropa bozorlariga chiqish uchun mustahkam transport yo'laklarini shakllantirish;

- Markaziy Osiyoning Xitoy sanoati uchun ulkan bozor bo'lib qolishini ta'minlash va shu kabilar.

Bugungi kun nuqtai-nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, Xitoy Markaziy Osiyo mintaqasida asosan iqtisodiy manfaatlarga e'tibor qaratmoqda. SHHT doirasida iqtisodiy hamkorlikda mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish, tovarlar, xizmatlar va texnologiyalaming erkin harakatini bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratishni rejalashtirgan. Jahon sahnasida so'nngi o'n yillikda kechgan voqealar Markaziy Osiyoni dunyoviy kuch markazlarininining, shu qatorda Rossiyaning e'tibori qaratilgan mintaqaga aylanganidan dalolat beradi.

Mazkur mintaqqa an'anviy ravishda Rossiya Federasiyasining manfaatlari zonasiga kirgani bilan sobiq ittifoq tuzumi yemirilganidan keyingi o'tgan bir qancha vaqt davomida Rossiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan tutgan siyosatida aniq bir yo'nalish ko'zga tashlanmaydi. Biroq, 2001-yil 11-sentabr voqealari va ulardan so'ng davom etgan Afg'onistonidagi aksilterror kompaniyasi, so'ngra MDH davlatlaridagi rangli inqiloblar to'lqini, Markaziy Osiyoga AQSH ta'sirining kuchayishi, Rossiyaning mintaqadagi muhim manfaatlari uchun jiddiy muammolarning vujudga kelayotganligini anglab yetishi, Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tashqi siyosiy strategiyasini o'zgarishiga olib keldi.

Markaziy Osiyo mintaqasida Rossiyaning strategik manfaat va rejalar quyidagilardan iborat:

- Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi ishtiroki birinchi navbatda, janubiy chegara hududlarini xavfsizligini ta'minlash;

- Uzoq yillar davomida shakllangan iqtisodiy munosabatlarni saqlab qolish va ularni yangi bosqichga ko'tarish;

- noqonuniy qurol va narkotik moddalar tranzitini to'sib qo'yish kabi holatlarga e'tibor qaratish bilan belgilanishi zarur.

- Rossiyaning Kaspiy havzasida o'z ta'sirini saqlab qolish va uglevodorod zaxiralaridan unumli foydalanish;

- Mintaqadagi tabiiy zahiralar, gaz, uglevodorod quvurlari va transport-kommunikasiya yo'llari ustidan nazorat o'matish;
- Shuningdek o'z milliy xavfsizligini ta'minlashda mintaqal davlatlari imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan Rossiya o'rtaida oxirgi vaqtarda siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy, harbiy sohalarda hamda halqaro terrorizm, ekstremizm, va giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash borasida integrasion jarayonlar faollashmoqda. Shunday qilib, Rossiya Markaziy Osiyo mintaqasiga geografik jihatdan yaqin joylashganligi va azaldan bu mintaqada o'z manfaatlariga ega bo'lganligi sababli boshqa yetakchi davlatlar AQSH, Xitoya qaraganda ko'proq imkoniyatlarga ega.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganlaridan keyin Yevropa Ittifoqi uchun Osiyo qit'asida strategik ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki ular ko'pchilik yevropalik mutaxassislar fikricha Yevropa uchun energiya va boshqa tabiiy xom-ashyo resurslarining muqobil manbai bo'lishi mumkin. Mintaqada o'zining iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda Yevropa Ittifoqi bu yerdagidagi davlatlardagi o'zgarishlar jarayoniga muhim ahamiyat beradi. Markaziy Osiyoga nisbatan Yevropa Ittifoqining pozitsiyasi vazminlik bilan xarakterlanadi. Hozirgi vaqtida Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga bo'lgan geosiyosiy manfaatlari tez jadallahib bormoqda. Iqtisodiy tomondan mintaqaning Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlariga to'sqinlik qiluvchi omillardan bular nafaqat uning masofasi uzoqligida balki, Yevropa va mintaqaga qatnov yo'llarida trasport tariflarining yuqoriligi, qatnov yo'llarining Rossiya hududi bo'ylab o'tishi, uning alohida hududlarining xavfsiz emasligi, qo'shni davlatlardagi qarama-qarshiliklarning mavjudligi kabilar hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyodagi iqtisodiy manfaatlarini quyidagilarda ko'radi: bugungi kunda Yevropa mamlakatlari sanoatining gurkirab o'sishi xom ashyo, eng avvalo uglevodorod xom ashyosi, muqobil energiya va boshqa tabiiy resurslarga ehtiyojining ortishiga sabab bo'lmoqda; Ukraina mojarosi sababli boshlangan sanksiyalar sabab bu jihatlar yanada oshib, muqobil energiya

resurslarini, yangi hamkorlarni topishga undamoqda; iqtisodiy jihatdan yuksalib borayotgan Markaziy Osiyo yaqin kelajakda Yevropa davlatlari sanoati tovarlari uchun muhim bozor vazifasmi o'tashi mumkim.YAIM yaratishda dunyoda ikkinchi, aholi soni bo'yicha uchinchi o'rinda turadigan Yevropa Ittifoqi bu mintaqada qator manfaatlarga ega. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar qatorida Hindiston ham dunyoviy tartibotda o'z o'rnini belgilash, manfaatlari yuzasidan kuchli ijtimoiy tashqi siyosiy faoliyat olib borish va mintaqalar bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga qo'shilishga harakat qilmoqda.

Hindistonning yadroviy davlatligini, dunyoda aholi soni bo'yicha ikkinchi o'rinda turishi, zamonaviy texnologiyalarga egaligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, yaqin kelajakda hind omilining Markaziy Osiyoga bo'lgan ta'siri yana ham oshadi. Shuni ham aytish kerakki, Hindiston mintaqada Rossiya, AQSH va Xitoy davlatlari o'rtasida manfaatlar muvozanatini saqlashga o'z hissasini qo'shishi mumkin. Hindistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi ko'zlayotgan manfaatlari quyidagilar:

- mintaqadagi uran yoqilg'i-energetika zahiralaridan foydalanish;
- mintaqada yo'lga qo'yilayotgan transport kommunikasiyalardan foydalanish, mintaqqa orqali Rossiyaga va Sharqiy Yevropa davlatlariga chiqish imkoniyatiga ega bo'lish;
- mintaqada AQSH Rossiya, Xitoy, Pokiston va Turkiya kabi davlatlaming ta'sir doiralarini kengayishiga yo'l qo'ymaslik va bir vaqtning o'zida mintaqada Xitoy, Eron bilan birgalikda AQSHga nisbatan kuchlar muvozanatini shakllantirish;
- radikal islom g'oyalarining mintaqqa orqali Hindistonning shimoliy chegara hududlariga tarqalishiga yo'l qo'ymaslik bilan birga Afg'onistondagi ichki beqaror holatni tinch holatga keltirish harakatlarini hamkorlik orqali amalga oshirish va shu kabilar. Eron Islom Respublikasi ham mintaqaviy davlat sifatida Markaziy Osiyo mintaqasida yetarlicha salohiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda Eronga AQSH tomonidan ta'sir etish elementlari saqlanib qolayotgan bir davrda u o'zining Markaziy Osiyodagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta'sir doirasini kengaytirishga urinish harakatlarini ko'rmoqda. Bundan tashqari, alohida olingan

ma'lumotlar tahliliga ko'ra, Eron tomonidan islom inqilobi eksporti mintaqaga nisbatan qo'llaniladigan instrument bo'lib qolmoqda (asosan Tojikiston uchun). Hozirgi kunda ham uning Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini kengaytirish, Rossiya bilan hamkorlik qilish, YEI davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish Eronning geostrategik holatini yaxshilovchi xarakterli element hisoblanadi. Hozirgi vaqtida Eronning asosiy vazifasi iqtisodiy va siyosiy izolyasiya ahvoldidan chiqish hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasida Eron AQSH, Rossiya, Xitoy va YEI davlatlari qarama-qarshiligi asosida tashkil qilingan strategik manfaatlar geosiyosiy balansini saqlash harakatlarini ko'rmoqda. AQSH va G'arbning Eronga tutgan siyosatidagi iliqlik unchalik uzoqqa bormasligi barchaga ayon. Chunki sanksiyalarning bir tomonlama bekor qilinishiga javoban Eron chekinishga qaror qilmoqchi emas. Qolaversa mamlakat mintaqadagi o'z siyosatida qat'iyligini ta'kidlamoqda. Shu va boshqa qator sabablar Eron rivojlanayotgan Osiyo davlatlari bilan integrasiyani chuqurlashtirishga, transport yo'laklarini yaratishga istiqbolli reja sifatida qaramoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi va arab olami mamlakatlari o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikning yangicha, jadal bosqichi 2017-yildan boshlandi. Unga qadar O'zbekiston milliy davlatchilik asoslarini barpo etish va mustahkamlash, o'zining ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, xususan, 2000-yillarda kuchaygan ko'pincha noqonuniy arab harakatlari ta'siri bilan bog'liq bo'lган radikal islom guruqlariga qarshi kurash masalalarini hal etish bilan band edi. Yaqin Sharq va Afg'onistonda davom etgan beqarorlik, 1999-yil 16-fevralda Toshkentda sodir etilgan terrorchilik harakatlari va 2001-yil voqealari sharoitida saqlanib qolgan davlatlararo ishonchsizlik mavjud edi.

Shunday qilib, yuqorida keltirib o'tilganlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, chet mamlakatlarning Markaziy Osiyoga bo'lган manfaatlari bugun yoki kechagi kun bilan bog'liq bo'libgina qolmay uning ildizlari nihoyatda chuqur ekanligini ma'lum. Yana bir o'ziga xos jihat bu davlatlar manfaatlarining ba'zi birlari bir-biriga ancha mos kelishi va aksincha bir-biriga mutloqo zid kelishida ko'rindi. Masalan, AQSH va Turkiyaning, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Yevropa Ittifoqining mintaqadagi

manfaatlari unchalik kesishmaydi. Lekin shu bilan birga AQSH va Rossiya, Turkiya va Eron, Hindiston va Pokiston manfaatlari qarama-qarshiligi mintaqaning rivojlanishida o'zining salbiy ta'siriga ega bo'lishi, bu esa mintaqa davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ham o'z aksini topishi ehtimoli ha mavjud.

Takrorlash uchun savollar.

1. Markaziy Osiyoga tahdid solayotgan mintaqaviy, diniy tusdagi tahdidlar?
2. Markaziy Osiyoning tabiiy-geografik imkoniyatlari qanday?
3. Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlaming strategik manfaatlari qanday ko'rinishlarda namoyon bo'ladi?
4. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari?

Mavzu. Markaziy Osiyodagi barqarorlikka tahdid solayotgan ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari

1. Ekstremizm va terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Markaziy Osiyoda faoliyat yuritishga intilayotgan ekstremistik tashkilotlar.
3. Yoshlarni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishda ta'lim va nodavlat tashkilotlari hamkorligi masalalari (Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi asosida).

Tayanch tushunchalar

Ekstremizm va terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. Markaziy Osiyoda faoliyat yuritishga intilayotgan ekstremistik tashkilotlar. Vahhobiylik va uning "O'zbekistonidagi tashkiliy tizimi", "O'zbekiston islam harakati"ning jamiyat taraqqiyotiga tahdidi. "Hizb ut-tahrir" oqimi va uning mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga tahdidi. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga tahdid soluvchi boshqa diniy-siyosiy harakatlar. Yoshlarni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishda ta'lim va nodavlat tashkilotlari hamkorligi masalalari

(*Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning so'fligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi asosida*).

1. Ekstremizm va terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari.

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy mutaassib oqimlar faoliyati XX asrning 80-yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar sa'y-harakatlari bilan shakllana boshladi. Mintaqada xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam hisobiga jangari sifatida foydalilaniladigan shaxslarni tanlash va tayyorlash bilan shug'ullanadigan guruhlar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgan 1990-yillarning boshlarida esa, bu guruhlar faollashib ketdi. Masalan, Namangan shahrida ayrim siyosiy kuchlarning moliyaviy ko'magi bilan «Adolat», «Tavba», «Islom lashkarlari» va boshqa ekstremistik tashkilotlar tuzildi.

1991-yil yanvar oyida yuzaga kelgan «Adolat» guruhining asl maqsadi mavjud tuzumni ag'darish, hokimiyat tepasiga kelish hamda islom davlatini barpo etishdan iborat bo'lган. Bu guruh jamoat tartibini saqlash, ko'cha jinoyatlariga qarshi kurash niqobi ostida har xil reydlar uyuştirdi, tekshiruvlar o'tkazdi, kishilarni qo'lga oldi. Ularning nazarida aybdor bo'lган shaxslar shariat ahkomlariga muvofiq xalq oldida jazolanardi. Aslida bunday xatti-harakat ortida «Adolat» rahbarlarining mahalliy hokimiyat va huquqni muhofaza qilish organlarini zarur xavfsizlik hamda tartibni ta'minlashga qodir emasdek qilib ko'rsatib, ularni xalq oldida obro'sizlantirish niyati turardi. Buning natijasida «Adolat» faollari 1990-1992-yillarda yig'ilishlar, mitinglar uyuştirishdi. 1991-yil oxirida Namanganda bolib o'tgan ko'p sonli norozilik mitingi eng sezilarli voqeа bo'ldi. O'sha vaqtida «Adolat» harakatining dasturiga yaqin bo'lган, o'zlarini «Islom lashkarlari» deya nomlagan (Namanganda tuzilgan) yana bir guruhga Tohir Yoldoshev rahbarlik qilardi. Keyinchalik O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov bunday deb eslagandi: «1991-yil 8-dekabrda men Namanganga borib aqlini yo'qotgan, o'ziga «Olloh lashkarlari» deb nom qo'yib olganlar bilan, o'sha Yo'ldoshev Tohir bilan yuzma-yuz bo'lganman. O'shanda

menden ular islom davlatini, islom respublikasini hozir e'lon qilasiz, deb talab qilishgan.



Tohir Yo'ldoshev (1968-yil 2-oktyabr-2009-yil 27-avgust)

Soqoli tizzasiga tushadigan kimsalar odamlarning boshini aylantirib, shu masalalarni ko'targanlari hali ham esimda, ovozlari hali ham qulog'imda turibdi». Aslida bu tartibsizliklar, mitinglarning o'sha vaqtdagi ommaviyligi kishilarning «Adolat», «Islom lashkarlari»ning g'oyalariga, ko'rsatmalariga ergashish emas, balki shu guruhlar tomonidan uyuşhtirilgan yig'ilishlarda ishtirok etganliklari uchun haq to'lanar edi. Masalan, guruh varaqalarini yopishtirganlik uchun 50-100 dollar miqdorida haq to'lanardi.

1990-yillar boshida tuzilgan «Tavba» guruhining asl maqsadi ham qonuniy hokimiyat organlarini almashtirish va ular tomonidan nazorat qilinadigan tuzilmalarni shakllantirishdan iborat edi.

1992-yilda O'zbekistonda bunday guruhlar faoliyati qonundan tashqari, deb e'lon qilingach, ularning faollaridan ko'pchiligi Afg'onistonga, Tojikistonga ko'chib o'tishdi. Qochqinlar orasida Tohir Yo'ldoshev, Jumaboy Hojiyev degan kimsalar ham bor edi.



Jumaboy Ahmadjonovich Hojiyev (1969-yil 12-iyun-2001-yil oktyabr)

Keyinchalik ular ko'plab ekstremistik tashkilotlar bilan har tomonlama aloqalar o'rnatib, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston, Afg'oniston, Pokiston kabi davlatlarda qo'poruvchilik harakatlarida ishtirok etishgan.

Ayniqsa, 1999-yilning 16-fevralida Toshkent shahrida terroristlar tomonidan uyuştirilgan portlashlar vaziyatni butkul beqarorlashtirish orqali mamlakatning turli joylarida bir qator terrorchilik amaliyotlarini rejallashtirgan edi. Aynan o'sha kuni soat 11 ga yaqin Toshkent shahridagi sobiq «Nodirabegim» kinoteatri, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Ichki Ishlar Vazirligi kabi binolar yaqiniga qo'yilgan avtomashinalarga o'rnatilgan portlatish qurilmalari ishga tushdi. Lekin asosiysi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi yonida sodir etildi.

Unda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ishtirokida mamlakat hukumatining 1998-yil yakunlari va 1999-yil ish rejalariga bag'ishlangan majlis bo'lib o'tishi belgilangan edi. Mazkur portlashlar natijasida 13 kishi halok bo'ldi, yuzdan ziyod odam turli darajada jarohatlandi. 50 dan ziyod ma'muriy va uy-joy binolari zararlandi.

1999-yil 28-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida terrorchilar ustidan bo'lib o'tgan sud jarayonida sudlanuvchilar ko'rsatmalari, jabrlanuvchilar va guvohlar, dastlabki tergov jarayonida yig'ilgan ashyoviy dalillar, tomonlarning fikrlari, ayblanuvchilarning so'zlari tinglandi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumni ag'darishga va hokimiyatni bosib olishga urinishda ayblangan 20 nafardan ziyod terrorchi ekstremist ustidan hukm o'qildi va ular o'z qilmishlariga yarasha qonuniy jazolandilar.

Toshkentdagи fevral voqealari qabih niyatli terrorchilarning navbatdagi hujumigina emasdi. Mintaqa uchun ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan bu terrorchilik harakati butun Markaziy Osiyon qonga botirishni ko'zlagan dahshatli urushning boshlanishiga ishora bo'lishi kerak edi. Yuzaga kelgan vaziyatdan foydalanib, Tohir Yo'ldoshev toliblar bilan Termiz tomonidan mamlakatga kirib kelishi, ayni mahalda J.Hojiyev otryadlari o'z jangarilari bilan Qirg'izistonning O'sh viloyati va Farg'ona vodiysi orqali O'zbekistonga kirishi kerak edi.

Lekin terrorchilik harakatlarining tashkilotchilari asosiy maqsadlariga erisha olmadilar. 1999-yil avgustda diniy niqobi ostidagi ekstremistlarning qurollangan yirik to'dalari Tojikistondan Qirg'iziston hududiga bostirib kirishdi, chegara yaqinidagi bir

necha qishloqni egallab, 12 nafar kishini garovga olishdi, ular orasida to‘rt nafar Yaponiya fuqarosi va Qirg‘izistonning bir necha yuqori martabali shaxslari bor edi.

2000-yilning avgust oyi boshida terrorchilar O‘zbekiston chegarasini bosib o‘tishga urinishdi. Bu gal ular o‘tish qiyin bo‘lgan Sarosiyon va Uzun tumanlarida parokanda guruhlar bilan bir qatorda hujum qilishdi. 2000-yil 11-avgustda O‘zbekiston hududida jangovar harakatlar boshlanishi bilan bir vaqtida jangarilarning 150 nafar kishigacha bo‘lgan qurolli guruhi Tojikiston hududidan Voruk anklavi orqali Qirg‘izistonning Botken viloyati baland tog‘li Laylak tumaniga bostirib kirgan edi. Jangovar harakatlar jarayonida jangarilarning yuzga yaqin a’zosi yo‘q qilindi, harbiylar ham talafot ko‘rishi.

2004-yil bahorida O‘zbekiston bo‘ylab terrorchilik harakatining yangi to‘lqini yoyildi. 29-martga o‘tar kechasi Toshkentda II ning bir qator xodimlariga hujumlar uyushtirildi, natijada uch ichki ishlar xodimi o‘ldirildi, bittasi yarador bo‘ldi.

Shu kuni ertalab Toshkentda, Chorsu bozori hududida, «Bolalar dunyosi» do‘koniga kiraverishda xudkush terrorchi ayol portlovchi qurilmani ishga soldi. Ikki kishi halok bo‘ldi, to‘rt kishi yaralandi. Keyinroq Ko‘kaldosh madrasasi yaqinida shahid tomonidan ikkinchi portlatish amalga oshirildi. Natijada 9 nafar ichki ishlar xodimi halok bo‘ldi.

Shu kunning o‘zida Buxoro viloyati Romitan tumanidagi Qahramon aholi punktida xususiy uydagi 9 kishining, shu jumladan bir go‘dakning hayotiga zomin bo‘lgan yana bir portlash sodir etildi. Ma’lumotlarga ko‘ra, portlash uskunasi terrorchilarga bomba tayyorlanadigan ustaxona sifatida xizmat qilgan uydagi ishga tushgan.

2004-yil 30-iyulda Toshkentda uch nafar xudkush terrorchi AQSH va Isroil elchixonalari yaqinida, shuningdek O‘zbekiston Bosh prokuraturasi binosi fayesida portlashlar sodir etishdi. Portlashlar natijasida jami 4 nafar kishi vafot etdi va 14 nafar kishi turli darajada tan jarohati oldi. Uchala terrorchi o‘zlari portlatish sodir etgan joylarda halok bo‘lishdi.

2005-yil 12-13-may kunlari Andijon shahrida «Akromiyalar» oqimi tomonidan mavjud konstitutsiyaviy tuzumni o‘zgartirish maqsadida ko‘plab odamlarni qurbon

bo'lishiga hamda fuqarolar va davlat mulkiga katta zarar yetkazilishiga olib kelgan qator terrorchilik harakatlari sodir etildi.

2009-yilning 26-mayida Andijon viloyatida sodir etilgan mudhish terrorchilik harakati oqibatida bir nafar huquqni muhofaza qilish idorasi xodimi halok bo'ldi. Bir necha fuqaro yarador boldi.

Darhaqiqat, o'sha vaqtarda mintaqadagi vaziyatning murakkabligiga qaramay, davlatimizning oqilona siyosati, o'z vaqtida qat'iyat bilan ko'rgan chora-tadbirlari hamda xalqimizning kuchli irodasi tufayli mamlakatimizda tinch va osuda hayot saqlab qolindi. Yuqorida qayd etilgan bunday jinoiy harakatlar O'zbekistondagi tinch-osoyishta hayotni, barqaror rivojlanishni ko'ra olmaydigan g'araz niyatli kuchlar o'zlarining razil maqsadlari yo'lida begunoh odamlarning qonini to'kishdan ham tap tortmasligini ko'rsatdi.

1990-yillar boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasida ekstremizm asosan firqabozlikka asoslangan yangi guruhlarning paydo bo'lishi, norasmiy yol bilan diniy saboq berish, noqonuniy tarzda diniy mahsulotlar tayyorlash, olib kirish, tarqatish, missionerlik va prozelitizmning avj olishi kabi ko'rinishlarda namoyon boldi.

Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, O'zbekistonda bunday tahdidning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab boldi:

- «qayta qurish» davrida nafaqat siyosiy va iqtisodiy inqiroz, balki mafkuraviy parokandalik ham yuzaga kelgan edi. Sovet imperiyasi barbod bolgach esa, mafkuraviy bo'shliq o'zining xatarli oqibatlarini namoyon qildi;

- e'tiborli diniy ulamolar o'rnini soxta «islomchilar» egallashga intilishlari va ular tomonidan islam asoslari buzib talqin qilinishi boshlandi;

- aholining islam diniga bolgan katta qiziqishidan foydalanib, xalqaro ekstremistik markazlar tomonidan mintaqada diniy mutaassiblik ruhidagi adabiyotlarni tarqatish kengaytirildi;

- din niqobi ostida faoliyat olib boruvchi, aslida ayrim davlatlarning g'arazli geosiyosiy va geostrategik qarashlari natijasi o'laroq shakllangan, qo'poruvchilik maqsadini ko'zIagan turli oqim va yo'nalishlarga mansub xorijiy da'vatchilar mintaqaga o'z g'oyalarini olib kira boshladilar;

- istiqlol arafasida mintaqada davlatlari chegaralarining mustahkam emasligi turli ekstremistik kuchlarga narkotrafik, quroq-yarog'larning noqonuniy savdosi orqali moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlab olishga va mintaqada bo'ylab erkin harakat qilishga zamin yaratdi.

Qisqa qilib aytganda, sho'ro davridan meros bo'lib qolgan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuqorida qayd etilgan sabablar bilan qo'shilib diniy ekstremistik oqimlarning shakllanishi va faollashuviga qulay sharoit yaratdi.

Umuman olganda esa, ekstremizm mintaqada yashirin, keyinroq ochiq-oshkora tashviqot va zo'ravonlikka asoslangan faol harakatlar, so'ng unga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar natijasida yana o'ta maxfiy ishlash asnosida targ'ibot olib borish va qo'poruvchilik xurujlarini sodir etish kabi bosqichlarni bosib o'tdi, deyish mumkin.

2. Markaziy Osiyodagi barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solayotgan ekstremistik va terrorchi tashkilotlar.

Dini niqobidagi ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligi rivojiga ko'rsatgan salbiy ta'siri Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan bir qancha mutaassib harakatlarning maqsadi tahlil qilinganida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Mintaqada asosan «Hizbut-tahrir», «Turkiston islom harakati», «Akromiylar», «Nurchilar», «Islomiy jihod ittihodi» kabi guruhlarning faoliyati kuzatildi.

«Hizbut-tahrir al-islomiy» (arab. «Islom ozodlik partiyasi»). «Hizbchilar», «tahrirchilar» deb ham yuritiladi. Falastinlik Taqiyiddin Nabahoniy (1909-1979) mazkur ekstremistik tashkilotning asoschisi hisoblanadi. Isroil davlatini tashkil etish haqidagi BMT qaroridan keyin 1947-yilda oilasini olib, Falastindan Bayrutga (Livan poytaxtiga) ko'chgan. Aslida Misrdagi «al-Ixvon al-muslimun» («Musulmon birodarlar») tashkiloti a'zosi bo'lgan Nabahoniy 1953-yilda mazkur jamoa a'zoligidan chiqib, Quddus (Iyerusalim) da «Hizbut-tahrir al-islomiy» tashkilotini tuzgan.



Taqiyiddin Nabahoni (1909-1979)

Nabahoni vafotidan so‘ng hizbga falastinlik Abdulqadim Zallum (1925—2003) boshchilik qildi. Uning rahbarligi davrida tashkilot sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalarda (asosan Markaziy Osiyo hududida) o‘z faoliyatini jadallashtirgan.



Abdulqadim Zallum (1925—2003)

Dastavval Falastinni ozod qilishni maqsad qilgan Nabahoni, keyinchalik butun dunyo musulmon mamlakatlarini birlashtiruvchi yagona xalifalik davlatini qurishni bosh maqsad deb e’lon qilgan. Shundan keyin esa, ushbu shakllangan islom ummatining da’vatlari orqali butun dunyoda xalifalik davlatini qurish mumkin, deb hisoblaydi.

Tashkilotning strategiyasi quyidagi uslublar orqali namoyon bo‘ladi:

- fikriy kurash. Bu omma orasida o‘zining «madaniy» qarashlarini targ‘ib qilish orqali bo‘ladi;
- fikriy inqilob. Bunda madaniy va siyosiy faoliyat olib borilib, hizbning fikrlari jamiyat ongiga singishi bilan yuzaga keladi;
- hukumatni egallah. Bu bosqich «tarbiyalangan ummat» orqali barcha hukmni qo‘lga olish bilan yakunlanadi.

So‘nggi yillarda «Hizbut-tahrir»da g’oyaviy yakdillik yo‘qolib, faoliyatida yuzaga kelgan samarasizlik tarkibiy bo‘linishlarga olib keldi. Undan «Hizbun nusra»

guruhi ajralib chiqdi. Shuningdek, «Hizbut-tahrir»ning «Ayollar qanoti» kuchaytirilishi barobarida, ular orasida o‘zini o‘zi o‘ldirish amaliyotidan keng foydalanimoqda.

«Hizbut-tahrir»ning a’zolari o‘rtasida taqsimlangan vazifalar aniq belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, «Amir Qiyodat» (dunyo bo‘yicha xalifalik davlatining eng katta rahbari), «Mo‘tamad» (vakil, ma’lum bir davlat boshlig‘i), «Mas’ul» (javobgar, viloyat bo‘yicha boshliq), «Naqib» (rahbar, rais, tuman bo‘yicha boshliq), uning yordamchisi esa «Musoid» va undan keyingi lavozimdagilar «Jihoz a’zolari» (boshqaruv idora a’zolari) deb ataladi. Harakatga kiruvchilarni o‘qitishga mas’ullar «Mushrif» (guruh rahbari) deyilsa, o‘quvchilarni «Doris» (o‘quvchi) deb belgilangan.

«Hizbut-tahrir» jamoasi g‘oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishi 1980-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda jamoa ta’limotlariga oid chet davlatlarda nashr etilgan turli xildagi kitob, risola va jurnallar noqonuniy yo‘llar bilan mintaqaga olib kirildi. Mazkur tashkilot 1992-yildan boshlab, O‘zbekiston hududida o‘zining o‘ta zararli faoliyatini olib borishga harakat qilib kelgan.



Ata Abu Rashta - «Hizbut-tahrir»ning 2003-yildan boshlab rahbari.

«Hizbut-tahrir»ning faoliyati O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Livan, Misr, Iordaniya, Germaniya, Rossiya, Pokiston va Suriya kabi bir qator davlatlarda qonun bilan taqiqlangan.

«Akromiylar». Asoschisining nomidan kelib chiqqan holda «Akromiylar» firqasi «imonchilar», «birodarlar», «xalifachilar» deb ham ataladi.

«Hizbut-tahrir» tashkiloti asoschisi Taqiyiddin Nabahoniy asarlaridan ta'sirlangan holda 1992-yilda Akrom Yo'ldoshev (1963-2009) tomonidan Andijonda shakllantirilgan.



Akrom Yo'ldoshev (1963-2009)

«Akromiylar»ning bosh g‘oyasi – islomiy boshqaruv shaklidagi davlatni barpo etish hisoblanib, buning uchun bosqichma-bosqich harakat qilish, avval Farg‘ona vodiysida xalifalik tuzumi barpo etish va keyinchalik uni mintaqaning boshqa hududlariga yoyish maqsad qilingan.

Akrom Yo'ldoshev «ilk diniy saboqlar»ini «Hizbut-tahrir» uyushmasida olganligi bois, o‘z shaxsiy ta’limotini yaratishda harakatning nazariy va amaliy fikrlaridan yiroqlasha olmagan.

Shu bois, «Islom nizomi», «Izzat va sharaf sari» va «Xalifalik» nomli «Hizbut-tahrir» adabiyotlaridan foydalangan holda o‘n ikki darsdan iborat «Imonga yo‘l» nomli kitobi orqali o‘z diniy falsafiy qarashlarini bayon qiladi. Sekin-asta o‘z atrofiga xayrixoh bo‘lgan kishilarni yig‘ib, mazkur kitob asosida darslar tashkillashtirgan va «Akromiylar» jamoasini shakllantirgan. Bu kitobdagi g‘oya atrofida birikkan tadbirkorlar o‘nlab korxonalar ochishadi. Bu korxonalardagi ish tartibi go‘yoki «islomiyadolat» tamoyillariga asoslangani aytildi.

Harakat siyosiy hokimiyatga erishishning 5 ta - «sirli», «moddiy» («iqtisodiy»), «ma’naviy» («siyosiy»), «uzviy maydon» va «to‘ntarish» («oxirat») bosqichiga asoslanadi. So‘nggi ikki bosqich jamiyat «islomlashtirilgan»dan so‘ng amalga oshirilishi va u orqali hokimiyatni butunlay egallash rejalashtirilgan.

«Akromiylar» o‘zaro aloqalarni mustahkamlash maqsadida, tadbirkorlik bilan shug‘ullanganlar hamda yangi a’zolarni asosan qarindoshlar hisobiga o‘zlarining savdo do‘konlari, sartaroshxona, novvoyxona, duradgorlik, qandolatchilik,

kosibchilik va mebel ishlab chiqarish sexlariga ishga jalg qilish orqali kengaytirishga harakat qilganlar. «Akromiylar» yangi a’zolarga ertayu kech mavjud tuzumning kamchiliklari, o‘zlarining go‘yoki siyosatdan yiroq, kichik bo‘lsada, haqiqiy «birodarlar jamoasi» muhitining «go‘zal» jihatlarini uqtirib borish orqali ruhiy ta’sir o‘tkazishga harakat qilganlar. Bunda ular hokimiyatni qo‘lga olish bilan bog’liq rejalarini jamoaning asosiy qismidan sir tutganliklari hamda yangi tarafdarlar ularni siyosatga aloqasi yo‘q deb bilganlari bois singdirilayotgan fikrlarga ko‘nikib boraverganliklarini ko‘rsatadi. Bu yo‘ldagi amaliy da’vat uslubi boshqa mutaassib kuchlar yondashuvidan farqli bolib, ommaga mafkuraviy tuzoq qo‘yishga asoslangan.

Akrom Yo’ldoshevning 2004-yil yozida «Akromiylar»ga tegishli qator idora va tashkilotlarning faoliyati to‘xtatilib, rahbarlari hibsga olinganidan keyin, ularni ozod etish chora-tadbirlariga boshchilik qilgani aytildi. Unga nisbat berilgan videoda Yo’ldoshev may oyining dastlabki kunlarida va 12-maydan 13-mayga o‘tar kechasi ham Andijonda qanday voqealar yuz berayotganligidan doimo xabardor bolib turganligini aytgan edi. Ma’lumki, 2005-yil 12-13-may kunlari Andijon shahrida «Akromiylar» oqimi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darish maqsadida ko‘plab odamlarning qurbon bo‘lishiga hamda fuqarolar va davlat mulkiga katta zarar yetkazilishiga olib kelgan terrorchilik harakati sodir etgan.

Hozirgi vaqtda G‘arbda «Akromiylar» yangi diniy-siyosiy guruuhlar tarkibida faoliyatni davom ettirmoqda. Jumladan, oqim tarafdarlari Germanianing Dyusseldorf shahrida 2009-yilning may oyida «Andijon - Adolat va Tiklanish» tashkiloti tashkil qilgan. 2011-yilda «Akromiylar» jamoasi va ularga moyil bo‘lgan «Andijon - Adolat va Tiklanish», «Tanyach» tashkilotlari va «Erk» partiyasi ishtirokida «O‘zbekiston xalq harakati» nomli uyushma tuzilgan. Ushbu harakat a’zolari tomonidan «ozodlik», «e’tiqod erkinligi», «inson huquqlari» kabi jozibali tushunchalar ishlatalib, turli yo‘llar, masalan, Internet tizimi orqali asosan yurtimiz yoshlarini o‘z saflariga qo‘shishga harakat qilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar ham jaholat og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarishini ko‘rsatadi. Shunday ekan, odamlar ongi va qalbida ma’rifatning mutlaq ustuvor

bo‘lishiga erishish, kishilar tafakkurini boyitish, ularda sog‘lom va sobit e’tiqodni shakllantirish uchun kurash, bu yoldagi nazariy va amaliy ishlarning hozirjavobligini ta’minlash, ta’sirchanligini oshirish dolzarb vazifalardan biri bolib qolaveradi. Zero, Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘rinli ta’kidlaganlaridek, odamning o‘z mustaqil fikriga, sobit e’tiqodiga, o‘zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlar, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lishi har turli mafkuralarning bosimi, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishining asosiy sharti hisoblanadi.

«Turkiston islom harakati» (sobiq «O‘zbekiston islom harakati») ekstremistik va terrorchi tashkilot. Ushbu tashkilot 1996-yilda «O‘zbekiston islom harakati» nomi ostida tashkil etilgan. Harakatni shakllantirishda 1992—1993-yillarda O‘zbekistonda faoliyati taqiqlangan «Adolat uyushmasi» (Namangan), «Islom uyg‘onish partiyasi» (1990-yil Astraxanda asos solinib, 1991-yil yanvaridan O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatgan), «Odamiylik va insonparvarlik» (Qo‘qon), «Turkiston islom partiyasi», «Islom lashkarlari» (Namangan) kabi diniy-ekstremistik guruhlarning sobiq faollari ishtirok etgan.

Tashkilotning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo hududida «Buyuk islom xalifaligi»ni tuzish, unda musulmonlar yashaydigan Kavkaz va Rossiya Federatsiyasining Volgabo‘yi respublikalarini qamrab olishdan iborat. Tashkilot o‘z maqsadiga erishish uchun qo‘poruvchilik va terrorchilik harakatlarini amalga oshirish, harbiy harakatlar uyushtirish, odamlarni garovga olish orqali mintaqadagi ichki siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish kabi vositalardan foydalanadi.

«Turkiston islom harakati» guruhi jangarilari 1999-yili Toshkent shahri va viloyatida, 2000-yili Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida, 2004-yili Toshkent va Buxoroda, 2005-yili Andijonda, shuningdek, 1999, 2000 va 2006-yillarda qo‘shni Qirg‘izistonda, 2006-yili Tojikistonda terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etgan. Mazkur guruh mintaqadagi terrorchi tashkilotlar bilan yaqin aloqaga ega.

«Turkiston islom harakati» so‘nggi yillarda talafotlar, strukturaviy o‘zgarishlar, rahbar a’zolar orasidagi yo‘qotishlarga duch keldi. Hozirda g‘oyaviy targ‘ibot kuchaytirilib, bosma va elektron nashrlar tarqatilishiga katta urg‘u berilmoqda.

Nurchilik. «Nurchilik» (turk. nurculuk) diniy mutaassib harakat. Xalq tilida «Nurchilar» degan nom bilan ham mashhur. Turkiyaning Bitlis viloyatidagi Nursa qishlog’ida tug‘ilgan Said Nursiy (1876—1960) bo‘lib, «Badiuzzamon» (arab. Zamonaning buyugi, benazir) laqabi bilan tanilgan.



Said Nursiy (1876-1960)

Harakat uning asoschisi tomonidan XX asrning 20-yillaridagi Turkiyadagi siyosiy va diniy vaziyatninng o‘zgarishi ta’sirida, xususan, Mustafo Kamol Otaturkning dunyoviy davlat tuzishiga qarshi muxolif ravishda shakllantirilgan. Said Nursiy Turkiya Respublikasi konstitutsiyasi tuzumiga tahdidi va shariatga asoslangan davlat tuzishni uyuştirishda ayblanib, sudlandi va 23-yil umrini qamoqda o‘tkazdi.

Harakat g’oyasi Nursiy tomonidan yozilgan 14 jilddan iborat Qur’on oyatlarining sharhlari va diniy ko’rsatmalardan iborat «Risolai Nur» kulliyoti kitobiga asoslanadi. «Nurchilik» hukumat tomonidan ta’qib qilingani uchun mazkur kitob 1954-yilgacha biror-bir nashriyotda chop etilmay, harakat faollari tomonidan qo’lda ko‘chirilib, xalq orasida maxfiy tarqatilgan. Harakat a’zolari manbaning muhimligini ko‘rsatishda Badiuzzamonning «Ilm uchun Risolai Nurni o‘qish va ko‘chirib yozish kifoya, boshqa hech narsa kerak emas», degan fikrini ilgari suradi.

Turkiyaning amaldagi davlat tuzumi o‘rniga islom shariatiga muvofiq qonun-qoidalarini joriy qilish «Nurchilik»ning asosiy g’oyasi hisoblanadi. Keyingi bosqichda go‘yoki, turkiyzabon davlatlarni Turkiya soyasida birlashtirib, islomiy davlatni barpo etish g’oyasi ilgari surilib, bunda harakat rahnamosi Fathulla Gyulenning «Butun Yer yuzi Allohning mulki, uni bu meniki, bu seniki, deb bo‘lib

olishga hech kimning haqqi yo‘q» degan fikr ostida boshqa xalqlarni Vatan tuyg‘usidan ajratib, ular ustidan hukmronlikni qo‘lga kiritish ko‘zlanadi.



Fathulla Gyulen 1941-yil 27-aprelda Turkiyaning Erzurum shahrida tug’ilgan. Hozirda Seylorsbergda (AQSH, Pensilvaniya shtati) yashaydi.

Harakatning strategiyasi uzoq davrga mo‘ljallangan bo‘lib, asta-sekinlik bilan yoshlarga mutaassib diniy g‘oyalarni singdirib borish hamda panturkizm g‘oyalarini singdirish va kelajakda ularning rahbar lavozimlarga tayinlanishi orqali «Nurchilik» jamoasiga moyil shaxslarni hokimiyat tepasiga chiqarishga asoslangan.

Nurchilar strategiyasida Kavkaz, Bolqon va Markaziy Osiyo mintaqasi alohida o‘rin tutadi. Fathulla Gyulen fikricha, harakatning bu hududlarda ustuvor mavqega erishishi Usmonlilar davridagi kabi «Buyuk Turon» tiklanishiga xizmat qiladi. Uning ko‘rsatmalariga rioya qilgan nurchilar til, din va madaniyatlar birligini hamda zamonaviy fikrlaydigan kadrlar tayyorlashda yordam berishni iddao qilgan holda Markaziy Osiyo davlatlarida ham paydo bo‘ldi.

Bu oqimning Markaziy Osiyo mintaqasiga kirib kelishi 1992-yildan boshlab kuzatilgan. Dastlab oqim g‘oyalari turkiyalik mutaassiblarning moddiy va ma’naviy ko‘magida yetkazilgan. Ular tomonidan mintaqqa mamlakatlarida ochilgan 128 ta litseydagи ta’lim jarayonida yangi pedagogik va psixologik texnologiyalar hamda metodlardan samarali foydalanilgani ularning dovrug‘i tarqalishiga va aholi tomonidan ijobiy qabul qilinishiga zamin yaratdi. «Nurchilar» harakatining rejasiga ko‘ra, 10-15 yillardan so‘ng ular faoliyat olib borgan mamlakatning yirik siyosiy arboblari va tijoratchilari bo‘lib yetishishlari kerak edi.

Mintaqa davlatlari televideniyelariga beg‘araz deya taqdim etilgan diniy mazmundagi film va turli yo‘llar bilan keng tarqalgan kitoblar yordamida ham

«Nurchilik» g‘oyalarini yoyish ishlari olib borildi. Bizga qo‘sni bo‘lgan ayrim davlatlarda bunday amaliyot bugungi kunda ham davom etmoqda.

Bu oqimning Markaziy Osiyoga kirib kelishi 1992-yildan boshlab mintaqa mamlakatlarida turk litseylarining ochilishi orqali namoyon bo‘ldi. «Nurchilik» harakatning «Silm» tarmog’i muassislik qilgan, moddiy-texnik ta’minoti «Osiyo finans» tashkiloti tomonidan moliyalashtirilgan 128 ta litsey ochildi. Litseydagi ta’lim jarayonida yangi pedagogik va psixologik texnologiyalar hamda metodlardan samarali foydalangan holda mashg‘ulotlar olib borilgani ularning dovrug‘i tarqalishiga va aholi tomonidan ijobiy qabul qilinishiga zamin yaratdi.

Mintaqa davlatlari televideniyelariga beg’araz deya taqdim etilgan diniy mazmundagi film va turli yo‘llar bilan keng tarqalgan kitoblar yordamida ham «Nurchilik» g‘oyalarini yoyish ishlari olib borildi.

«Nurchilik» harakatining O‘zbekistonga kirib kelishi mustaqillik yillarining boshlariga borib taqaladi. Ular Turkiya bilan bo‘lgan milliy va madaniy aloqalar soyasi ostida Turk-o‘zbek litseylari faoliyatini moliyalashtirib, o‘zbek yoshlarini harakat g‘oyalari domiga tortmoqchi bo‘ldilar. Harakatning asl maqsadlari fosh bo‘lgach, 1999-yil uning faoliyati taqiqlanib, mamlakatdagi litseylar yopildi. Shuningdek, harakat a’zolarining O‘zbekistonidagi ikkinchi g‘ayriqonuniy urinishlari sifatida tashkil etilgan o‘quv markazlari, chop etilgan gazeta va jurnallar hamda teleko‘rsatuvarlar aniqlanib, ularning faoliyati ham tugatildi. Ming afsuski, bizga qo‘sni bo‘lgan ayrim davlatlarda bunday amaliyot bugungi kunda ham davom etmoqda.

«Nurchilik» ochiqdan-ochiq konstitutsion tuzumga qarshi kurash, «islom davlati»ni qurish g‘oyalari mavjud bo‘lmasa-da, mazmun va mohiyat jihatidan uning g‘oyalari va ushbu oqim tomonidan chop qilingan adabiyotlar fundamentalistik ta’limotlarning aholi orasida ildiz otib ketishiga asos yaratib, jamiyat barqarorligiga xavf soluvchi mutaassiblik g‘oyalarini targ‘ib etishga xizmat qiladi. Harakatning g‘oyalari va faoliyatiga Turkiya jamiyatining o‘zida ham ziddiyatli munosabat mavjud.

Islomiy jihod ittihodi. «Islomiy jihod ittihodi» (arab. «Ittihad al-jihad alislamiy»). Mazkur guruhning «Islom jihodi», «Islom jihodi uyushmasi», «Islom jihodi - mujohidlar jamoati» nomlari ham mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, guruhga avvallari «Turkiston islom harakati»ning a'zosi bo'lgan, o'zini «amir» deb e'lon qilgan Najmiddin Jalolov asos solgan.



Najmiddin Jalolov (Yahyo, 1972-2009)

Mutaxassislar «Islomiy jihod ittihodi» guruhi «Turkiston islom harakati»dan ajralib chiqqanini e'tirof etishadi. Bunga moliyaviy masalalar, strategiya va maqsadlar bo'yicha «Turkiston islom harakati»ning rahbari bilan bir guruh jangarilar o'rtasida ixtilofning yuzaga kelishi asosiy sabab bo'lgan.

Guruhning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi hukumatiga qarshi chiqish, konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish, terrorizm orqali islom xalifaligini o'rnatishdan iborat. Ushbu maqsadda guruh Afg'oniston, Pokiston va Kavkazdagi xalqaro terrorchi jamoa va tashkilotlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatgan.

Ushbu guruh Markaziy Osiyo mintaqasidagi faoliyati davomida bir qator teraktlar sodir etgan. Guruh a'zolari tomonidan 2009-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyatida qo'poruvchilik harakati sodir etilgan. Shuningdek, 2009-yilning yoz oylarida ular tomonidan Toshkent shahri, Qashqadaryo hamda Toshkent viloyatlarida amalga oshirilgan qotillik va bosqinchiliklar natijasida 3 kishi halok bo'lgan, 24 fuqaro turli darajada tan jarohati olgan.

«Islomiy jihod ittihodi» bugungi kunda «Internet» tarmog'i orqali targ'ibot ishlari o'tkazish va mehnat migrantlari ichida yollash ishlari o'tkazish kabi usullar bilan o'z safini yangi jangarilar bilan toldirishga harakat qilmoqda.

“Imom Buxoriy katabasi”(“Imom Buxoriy jamoati”) Salohiddin al O’zbekiy 2001-yilda Afg’onistonda asos solgan. AQSH davlat departamenti o’zbek jangarilarining “Imom Buxoriy jamoati” (IBJ) guruhini xalqaro terrorchilik tashkilotlari ro‘yxatiga 2018-yil 22-martda kiritdi.

“Imom Al-Buxoriy katabasi” nomi bilan ham tanilgan ushbu guruh “Suriyada o’zbek jangarilaridan iborat asosiy harbiy kuch” bo’lgan. IBJ “Al Qoida”ning Suriyadagi bo‘linmasi hisoblangan “Jabhat Fotih al-Shom” (avval “Jabhat an-Nusra” nomi bilan mashhur bo‘lgan) jangari guruhining ittifoqchisi ekani aytilgan. Long War Journal blogi ma’lumotlariga ko‘ra, [Afg’onistonda ham o’z bo‘linmasiga ega “Imom Buxoriy jamoati”](#) afg‘on tolibonlariga sodiqligini e’lon qilgan.

Yuqorida qayd etilgan ekstremistik tashkilotlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O’zbekiston xavfsizligiga tahdid solgani yuqorida keltirilgan ma’lumotlarda o’z aksini topgan. Shunga mos ravishda, O’zbekistonda ham ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha salmoqli tajriba to‘plangan.

Mazkur tajribadan kelib chiqadigan eng asosiy xulosa shuki, ekstremizm va terrorizm bilan kurashda, asosan, huquq-tartibot organlariga suyanish, faqat jazo choralarini qo‘llash orqali unga barham berishga intilish mazkur salbiy hodisaning oqibati bilangina kurashish deganidir. Boshqacha aytganda, bunday yo’ldan borilsa, ekstremizm va terrorizmni oziqlantirib turgan «ildiz»lar zararlanmay qolaveradi, ma’lum bir davr o’tishi bilan ular yangi «kurtak»lar berishda davom etaveradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ekstremizm va terrorizmning Markaziy Osiyoda namoyon bolishining o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?
2. Ekstremistik harakatlar tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan qanday g‘arazli maqsadlar ko’zlangan?
3. Markaziy Osiyoda faoliyat yuritishga intilayotgan qanday diniy ekstremistik tashkilotlar mavjud?
4. Mintaqada faoliyati kuzatilgan terrorchi guruhlarning faoliyat uslublari, tashkiliy tuzilmasining o‘ziga xos jihatlari haqida nimalarni bilasiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

- Aliyev J. Zulmat girdobi. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. - 32 b.
- G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. — Toshkent: «0‘zbekiston», 2013. - 312 b.
- Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar (Ma’lumotlar to‘plami). / K.Shermuxamedov, J.Karimov. - Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2014. -160 b.
- Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. - 552 b.

**Mavzu. O‘zbekistonning ekstremizm va terrorizmni oldini olish
va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati.**

Reja

- Terrorizm va ekstremizmning xavfli ko’lami jahondagi eng xavotirli muammolardan biri ekanligi va uning fojiali oqibatlari.
- O‘zbekistonning xalqaro terrorchilikka qarshi kurashda o’z mustahkam pozitsiyasiga egaligi.
- “Terrorizmga qarshi kurash to’g’risida”gi qonun. Terrorizm va ekstremizmga kurashda ma’naviy qadriyatlarga tayanish.
- Terrorchilikka qarshi kurashda O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan hamkorligi. O‘zbekiston va SHHT.

Tayanch tushunchalar

Terrorizm va ekstremizmning xavfli ko’lami jahondagi eng xavotirli muammolardan biri ekanligi va uning fojiali oqibatlari. O‘zbekistonning xalqaro terrorchilikka qarshi kurashda o’z mustahkam pozitsiyasiga egaligi. “Terrorizmga qarshi kurash to’g’risida”gi qonun. Terrorizm va ekstremizmga kurashda ma’naviy qadriyatlarga tayanish. Terrorchilikka qarshi kurashda O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan hamkorligi. O‘zbekiston va SHHT.

1. Terrorizm va ekstremizmning xavfli ko'lami jahondagi eng xavotirli muammolardan biri ekanligi va uning fojiali oqibatlari.

Jamiyat taraqqiyotiga muqobil ravishda ekstremizm va terrorchilik bilan bog'liq jinoyatlar sifat va miqdor jihatidan o'zgarib, uning masshtab doirasi tobora kengayib bormoqda. Shuningdek, terrorchilar sodir etayotgan jinoyatlarning intensivligi va og'irlik darajasi ham kun sayin dahshatli tus olayotgani juda achinarli holdir.

Bu esa insoniyat xavfsizligi va dunyo mamlakatlarining ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotiga tahdid hamon saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Ekstremizm aqidaparastlik va mutaassiblik bilan bog'liq bo'lib, din sohasidagi salbiy hodisalarining o'ziga xos mantiqiy halqasi hisoblanadi.

Ekstremistik harakatlar o'zlarining g'ayriinsoniy g'oyalari bilan odamlar ongini egallah, diniy shiorlardan foydalangan holda ularni chalg'itish, jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishish maqsadlarini ko'zlaydilar.

Buzg'unchilik esa ular o'zлari jar solayotgan, o'zлari intilayotgan mazmun-mohiyati va shaklu shamoyili noma'lum bo'lgan jamiyatga erishishning yoli sifatida chiqadi. Ekstremistik tashkilotlar kurashning terrordan boshqa yo'lini rad etishi, jangariligi hamda yuqori darajada ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi.

O'tgan asrning 70-yillari oxiriga kelib, Afg'oniston ekstremizm va fundamentalizmning eng yirik o'chog'iga aylana boshladi. Ushbu mamlakatdagi siyosiy beqarorlik tufayli turli mamlakatlardan o'zining xunuk qilmishlari uchun badarg'a bo'lgan qora kuchlar Afg'onistonga oqib keldilar va mustahkam o'rashib oldilar. «Tolibon» lar ularga boshpana berdilar. Afsuski, ayrim yirik davlatlar ham o'zlarining shubhali geosiyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish ilinjida Afg'onistondagi radikal guruhlarni amalda qo'llab-quvvatladilar. Natijada, ushbu mamlakat ekstremizm va terrorizmning haqiqiy o'chog'iga aylandi. Bu hol nafaqat uning, balki unga tutash mamlakatlarning xavfsizligiga ham tajovuz solgan.

Bugungi kunda diniy shiorlarni o‘ziga bayroq qilib olgan ekstremistik oqimlar kishilarni garovga olish, turli qiynoqlarga solish va hattoki, shafqatsiz uslublarda qatl etishdek mudhish ishlarga qo‘l urmoqdalar.

XXI asr boshlarida mazkur harakatlar yanada avj olayotganini ko’rishimiz mumkin. Ekstremizmni o‘ziga qurol qilib olgan terrorchilarning butun dunyo nafratini qo‘zg‘atgan 2001-yilda sodir etgan vahshiyliklari bashariyat tarixidagi eng mash’um sahifalardan bo‘lib qolishiga hech kim shubha qilmaydi. Jumladan, 2001-yilning 11-sentyabrida turli reyslar bilan AQSHning Nyu-York, Boston va Vashington shaharlaridan uchgan to‘rtta «Boing-757» samolyoti IB nafar terrorchi tomonidan egallab olinib, ularning ikkitasi Nyu-Yorkdagi Xalqaro Savdo Markazi joylashgan «egizak» binolarga, bittasi esa AQSH qurolli kuchlari shtabi - Pentagonga yo‘naltirildi. Yana bir samolyot Pensilvaniya shtatidagi Shanksville rayoniga qulab tushdi. Oqibatda 2974 kishi hayotdan ko‘z yumdi shu bilan birga 18 ta terrorchi, 10 mingdan ziyod kishi jarohatlandi.



2003-yil 13-noyabrda Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan ikki sinagoga (yahudiylar ibodatxonasi) yonida portlovchi moddalar bilan to‘ldirilgan mashinalar portlatilib yuborilgan. Natijada 25 kishi halok bo‘ldi va 300 nafar shaxs jarohatlandi.

2004-yilning 11-martida Ispaniyaning Madrid shahridagi 4 ta temiryo‘1 bekatida umumiy hisobda 6 ta portlatish amalga oshirildi. Natijada, 200 ga yaqin kishi halok bo‘ldi va 1500 dan ziyod kishi jarohatlandi.

2005-yil 7-iyulda Buyuk Britaniyaning London shahri metrosida bir qancha terrorchilik harakatlari amalga oshirildi. Natijada 56 kishi qurban bo‘ldi va 700 nafar kishi turli darajada jarohat oldi. 2005-yil 5-noyabrda Iordaniyaning Ammon shahrida portlatishlar amalga oshirildi. Buning oqibatida 67 begunoh inson hayotdan ko‘z yumdi va 295 shaxs jarohatlandi.

2008-yil 26-noyabrdan 29 noyabrgacha «Dekkan Mujohidin» ekstremistik tashkiloti tomonidan Mumbay (Hindiston)dagi «Toj Mahal» mehmonxonasi, shahar shifoxonasi va «Yahudiylar markazi»ga uyuştirilgan terrorchilik xurujlari oqibatida 195 kishi halok bo‘lgan, mingga yaqin kishi og‘ir tan jarohati olgan.

2013-yil 21-sentyabrda Keniya poytaxti Nayrobida joylashgan «Vestgeyt» savdo markaziga Somalidagi «ash-Shabab» tashkiloti jangarilari qurolli bosqinni amalga oshirib, nafaqat boshqa din vakillari, balki islom ta’limotlarini to‘liq bilmagan musulmonlarni ham qynoqqa solishgan. Natijada, 70 ga yaqin inson hayotdan ko‘z yumib, 200 dan oshiq insonlar tan jarohati olishgan.

2014-yil 26-noyabr kuni «Boko Xaram» terrorchi guruhi Nigeriyaning Borno shtatidagi ikkita qishloqqa hujum qilib, vayronaga aylantiradi. 20 dan ortiq kishi vafot etadi.

2015-yil 10-oktyabr kuni Turkiyaning poytaxti Anqarada portlash sodir boladi. Terakt oqibatida 95 kishi vafot etadi, 246 kishi jarohat oladi.

2015-yil 31-oktyabr kuni Sinay yarimorolida (Misr) Sharm al-Shayxdan Sankt-Peterburg shahriga uchgan samolyot halokatga uchraydi. Mazkur halokat rasmiy ravishda terakt deb baholanadi. Unda 224 kishi vafot etdi.

2016-yil 22-mart kuni Belgiya poytaxti aeroportida ikkita, so‘ngra, Yevroparlament binosi yaqinidagi metro stansiyasida yana ikkita portlash sodir etildi. 30 dan ortiq inson vafot etdi, 130 dan ortiq kishi jarohatlangan.

2016-yil 14-iyul kuni Fransiyaning Nitssa shahrida mamlakatning milliy bayrami - Bastiliya kunini nishonlash paytida mudhish terakt sodir etildi. Falokat oqibatida

84 kishi halok boldi, yuzdan ortiq odam jarohatlandi. 2017 yilda dunyoning 116 ta mamlakatda jangarilar faolligi kuzatilgan bo'lsa, 2018 yilda terrorchilar 90 ta mamlakatda harakat qilishgan.

Yuqoridagi holatlar bunday harakatlarning ko'lami kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, tinchlik - urush va nizolarga barham berish orqaligina ta'minlanadi. Afsuski, turli qarama-qarshilik va ziddiyatlarni keltirib chiqarish yo'li bilan o'z maqsadlariga erishishni ko'zlaydigan kuchlar bor ekan, sun'iy ravishda nizoli vaziyatlarni vujudga keltirishga qaratilgan harakatlar ham to'xtamaydi. Bunga 2011—2016-yillarda ba'zi arab mamlakatlarida ro'y bergen va hamon davom etayotgan siyosiy inqirozlar oqibatida yuzaga kelgan qonli to'qnashuvlar misol bola oladi. Mazkur ommaviy tartibsizliklar tufayli Tunisda 300 nafar, Misrda 800 nafar, Liviyada 14 ming nafar, Suriyada 250 mingga yaqin kishi halok bolgan.

Ayniqsa, Suriyaning kelajagi qanday bo'lishini hozirgi kunda hech kim bilmaydi. Ilgari gullab-yashnagan musulmon mamlakati uchun besh yil davom etgan qonli urushlar juda ayanchli yakun topmoqda - har elliginchi suriyalik halok boldi, har ikkinchisi esa qochoqlikda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2011-yili Suriyada 21 million aholi istiqomat qilgan. Besh yil ichida esa 250 minggi halok boldi. Agar halok bolgan, yaralangan va boshqa davlatlarga qochishga majbur bolgan suriyaliklarning umumiyligi soni birlashtirilib chiqilsa, unda Suriya o'z aholisining deyarli to'rtadan bir qismini yo'qotganligi aniqlanadi. Ikkinci Jahon urushidan keyin Suriyadagi mojaro eng qonli urushlardan boldi.

Yaqin Sharq va G'arbdagi ayrim davlatlarning Suriya davlatining ichki ishlariga aralashishga harakati hamda rasmiy davlat rahbarini ag'darib tashlashga intilishlari oqibatida nafaqat qonli to'qnashuvlar sodir boldi, balki dunyo tarixida ilk bor «terrorchilar davlati»ning paydo bolishiga zamin yaratdi. Bugun Yaqin Sharqdagi bir necha terrorchi guruhlarni birlashtirgan «Iroq va Shorn islom davlati» (ISIID) tashkiloti butun dunyoga xavf soldi. Ammo, Suriyadagi mojarolarning ilk davrlarida ushbu tashkilot Shom (Suriya) hududida «xalifalik»

qurishga chaqirayotgan uncha katta bo‘lмаган din niqobidagi ekstremistik guruhlarning koalitsiyasi sifatida ma’лum bo‘lgan edi.

Mamlakatning ko‘plab yerlaridagi hokimiyat organlaridagi bo’shliqlar va ma’лum davlatlarning yordamida «IShID» bir necha oy ichida dunyo hamjamiyatiga tahdid soluvchi, ko‘p minglab terrorchilarga ega bo‘lgan yirik jangari guruhga aylandi.

Birgina, 2015-yili «IShID»ning terrorchilik harakatlari natijasida 6 ming 141 kishi halok bo‘ldi. Bu guruh har bir terrorchilik bosqinida 6,4 ta odam o‘limiga sabab bo‘ldi. Iroq hududida sodir bo‘lgan terrorchilik harakatlari oqibatida halok bo‘lganlarning 62% «IShID»ga to‘g‘ri keldi. Bu guruh zarar keltirgan davlatlar soni 28 taga yetdi.

Ekstremizm va terrorizmning mudhish qiyofalaridan yana biri sifatida 2015-yil fevral oyida aynan «IShID» jangarilari tomonidan Mosul markaziy kutubxonasi portlatilib, 10 mingdan ziyod noyob kitoblar yo‘q qilinganini aytish mumkin. Kutubxona hovlisida terrorchilar qo‘lyozma va bosma kitoblarni jamlab, gulxan yoqishdi. Shuningdek, «IShID» jangarilari Mosul shahri muzeyi eksponatlarini ham yo‘q qilishdi. 2015-yil 4-martda «IShID» tomonidan Nimrud shahri qadimgi ossuriy binolari va haykallarini buldozerlar yordamida yer bilan yakson qilindi. O‘scha yili 7-va 8-mart kunlari jangarilar tomonidan qadimgi Xatra shahri xarobalari hamda Dur-Sharruqin shahri, shuningdek, avgust oyida Suriyaning Palmira (Tadmur)dagи qadimiy Baalshamina va Bela ibodatxonalari ham vayron qilindi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ekstremistik harakatlar faqat islom bayrog‘i ostida amalga oshirilmoqda, degan xulosaga kelmaslik lozim. Chunonchi, nafaqat islom, balki xristian dinining ba’zi sektalariga asoslangan ko‘plab din niqobidagi ekstremistik harakatlar ham mavjud. Xususan, «Iyegovochilar», «Pyatidesyatniklar», «Tashabbuskor baptistlar» faolligini alohida qayd etish o‘rinli.

Masalan, «Tashabbuskor baptistlar» umuman na qonuniy hokimiyat va na dunyoviy qonunlarni tan olmaydi, ularning fikricha, cherkov davlatdan yuqori turadi.

«Pyatidesyatniklar»ning ba’zi vakillari esa, o‘z safdoshlarini o‘ta shafqatsizlik bilan ado etiladigan ibodatlarga zo‘rlaydi va dunyo ne’matlaridan batamom voz kechib, tarkidunyochilik bilan yashashga da’vat etadi. Dunyoning turli hududlarida sodir bo‘layotgan bu kabi mudhish voqealar oqibatida aziyat chekayotgan begunoh kishilar turli millat va din vakillari sanaladi.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish lozimki, ekstremizm va terrorizmni na dini, na millati va na Vatani bor. Bu kabi harakatlarning kishilik jamiyatining nafaqat buguniga emas, balki istiqboliga ham jiddiy tahdid solayotgan omilga aylangani, insoniyat unga qarshi bir butunlikda kurashgandagina ijobiy natijalarga erishishi mumkinligini ko‘rsatadi.

2. O‘zbekistonning xalqaro terrorchilikka qarshi kurashda o‘z mustahkam pozitsiyasiga egaligi.

Mustaqillikka erishgan O‘zbekiston Respublikasi diniy mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanini ta’kidlab, jahon hamjamiyati unga qarshi birgalikda kurashishi lozimligini jahonning nufuzli tashkilotlari minbarlaridan e’lon qildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993-yil 28-sentyabrdan BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan ma’ruzasida jahon hamjamiyatini Afg'oniston muammosini izchil o‘rganish va yechishga chaqirdi.

2001-yilning 28-sentyabrida BMTning Xavfsizlik Kengashi 1373 (2001)-sonli rezolyutsiyani qabul qilib, tashkilot qoshida terrorizmga qarshi kurash qo‘mitasini tuzdi. Ushbu qo‘mitaning tuzilishi va faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov taklif qilgan terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazining konsepsiyasiga hamohangdir. Zero, 1999-yilning noyabrida Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (YeXHT) Stambulda bo‘lib o‘tgan Sammitida va 2000-yilning 7—8-sentyabrida Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining «Mingyllik sammiti»da BMT tuzilmalarida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tuzish taklifini bayon qilgan edi. Ushbu tashabbus amalga oshganidan so‘ng, O‘zbekiston 2001-yil dekabr oyida va

2002-yilning avgust oyida BMT Xavfsizlik Kengashining yuqorida zikr etilgan rezolyutsiyasining bajarilishi xususida BMTning terrorizmga qarshi kurash qo‘mitasiga ma’ruzalar taqdim etdi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1998-yilda tashkil topgan «6+2» guruhining BMT rahbarligida 1998—1999-yillarda olib borgan faoliyati Afg‘onistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega bo‘lganini ta’kidlash zarur. Bu guruh Afg‘oniston bilan chegaradosh olti davlat (Xitoy, O‘zbekiston, Pokiston, Eron, Tojikiston, Turkmaniston) va mintaqqa tashqarisidan Afg‘onistondagi vaziyatga jiddiy ta’sir ko‘rsatib turgan ikki davlat – AQSH va Rossiya Federatsiyasining yuqori darajadagi vakillaridan tashkil topgan edi. Bu guruh bir qator majlislar, muhokamalar va muzokaralar o‘tkazib, ularga Afg‘onistonda bir-biri bilan kurashayotgan kuchlar vakillarini jalb qilib, «Afg‘onistondagi mojaroni tinch yo‘l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to‘g‘risida»gi Toshkent Deklaratsiyasini va mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo‘yicha bir qator boshqa hujjatlarni ishlab chiqdi. 1999-yilning 28-iyulida BMT Xavfsizlik Kengashi majlisida «6+2» guruhining Toshkent uchrashuvi yakunlari yuksak baholandi.

Xalqaro tashkilotlar va ayrim mamlakatlar ushbu yo‘nalishda muayyan ishlarni amalga oshirayotgan bo‘lsa-da, Afg‘oniston jahon hamjamiyati uchun halihanuz tahdidlar o‘chog‘i bo‘lib qolayotganini, ushbu mamlakatda ziddiyatlarning kuchayib borishi, keskinlik va terrorizm ko‘lamining kengayishi global xavfsizlik va barqarorlik uchun hamon jiddiy tahdid solayotganini ham ta’kidlash zarur. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yil aprelda Buxarest shahrida bo‘lib o‘tgan, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta’minalash yo‘lida ko‘p tomonlama hamkorlik, shuningdek, Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga doir masalalar muhokama qilingan NATO Yevroatlantika hamkorlik kengashi sammitida qilgan ma’ruzasida bayon etilgan g‘oyalari diqqatga sazovordir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan Afg‘onistonda vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha yagona xalqaro amaliy

mexanizm bo‘lib kelgan, 1997-2001-yillarda BMT rahnamoligida samarali faoliyat ko‘rsatgan, Afg‘oniston bilan qo’shni davlatlar, AQSH va Rossianing vakolatli vakillaridan tashkil topgan «6+2» muloqot guruhini muzokaralar jarayonida NATO vakolatxonasi ham albatta ishtirok etishini nazarda tutib, «6+3» guruhiga aylantirish zarurligi haqidagi taklif ilgari surilgan edi.

O’zbekiston hukumati Afg‘oniston tinchligiga bag’ishlangan "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzuidagi xalqaro konferensiyaga mezbonlik qildi. 2018-yil 26-27-mart kunlari Toshkentda o’tkazilgan bu anjumanda ikki davlat rahbarlari, AQSh, BMT, Yevropa Ittifoqi va dunyoning bir qancha mamlakatlaridan yuqori martabali vakillar qatnashdi.

O’zbekiston Respublikasi ekstremizm va terrorizm bilan birga uni moliyalashtirish bilan uzviy bog‘liq bolgan narkobiznes va narkotrafikka qarshi kurashda ham qat’iy siyosat olib bormoqda. 1999-yilda «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi, 2000-yilda «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi va 2006-yilning 1-yanvaridan amalga kiritilgan «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunlarning qabul qilingani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Shuningdek, terrorizmga qarshi qaratilgan ko‘plab xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, ulardagi majburiyatlarini izchil bajarib kelmoqda.

3. “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun. Terrorizm va ekstremizmga kurashda ma’naviy qadriyatlarga tayanish.

O’zbekistonda shakllanayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati o‘ta murakkab va mashaqqatli siyosiy jarayonga asoslangan. Bir tomonidan, eski sovet tuzumidan qolgan salbiy meros demokratik o‘zgarishlarga qarshilik ko‘rsatsa, ikkinchi tomonidan, ayrim siyosiy kuchlar xalqimiz tanlagan dunyoviy taraqqiyot yo‘liga rahna solib, uni izdan chiqarish va diniy maqomga burib yuborishga harakat qilmoqda. Bu «ayrim siyosiy kuchlar» ekstremizm va terrorizmnинг bevosita ilhomchilari va bajaruvchilari bo‘lib, ular норок siyosiy maqsadlari yo‘lida inson va jamiyatning eng nozik va qaltis tarixiy qadriyati - dindan foydalanishga urinmoqda.

Ayniqsa, 1999-yilning 16-fevralida Toshkent shahrida terroristlar tomonidan uyushtirilgan portlashlardan keyin terrorizm muammosi O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatarlardan biriga aylandi.

Mustaqil davlatimiz qonunchiligidagi terrorizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari (qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, jazoning muqarrarligi) bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularning asosiyлари quyidagilardir:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonuni (2000-yil 15-dekabr).

2 O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi (2001-yil 18-oktyabrdagi o‘zgartish va qo‘sishchalar bilan).

3. O‘zbekiston Respublikasining «Jinoyat, jinoyat-protsessual kodeksi va ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni (2001-yil 29-avgust).

4. O‘zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonuni (2004-yil 26-avgust).

5. “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun (2018-yil 30-iyul).

Ushbu huquqiy-me’yoriy hujjatlar orasida O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi va «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonunlar alohida e’tiborga molik. Chunki bu qonunlar tufayli O‘zbekistonda terrorizmga qarshi kurashning normativ, tashkiliy va moddiy-texnik asoslari yaratildi. Unga ko‘ra, terrorizmni targ‘ibot qilish, terroristik guruh va tashkilotlarni tuzish hamda ularning faoliyati, tayyorlanayotgan yoki amalga oshirilgan terroristik jinoyatlarga oid ma’lumot va dalillarni yashirish taqiqlanadi.

Terrorizmga qarshi kurash dastavval uni oziqlantiruvchi g‘oyaviy-ma’naviy va moliyaviy-iqtisodiy manbalarni zararsizlantirishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan 2006-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi

kurash to‘g‘risida»gi Qonun jinoiy faoliyatdan olingen daromadni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonunga ko‘ra pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkka oid operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshirish vakolati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. Respublika Bosh prokuraturasi huzurida faoliyat ko‘rsatayotgan Soliq, valyutaga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti zimmasiga moliyaviy razvedkaning zamonaviy tizimini yaratish, jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning kanal va mexanizmlarini aniqlashga yo‘naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalarning monitoringini amalga oshirish, xorijiy davlatlarning vakolatli organlari hamda xalqaro ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish va axborotlar ayirboshlash kabi yangi vazifalar yuklatildi. Chunki bugun diniy shiorlar bilan niqoblangan, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosidan kelayotgan katta-katta mablag‘lar evaziga yashayotgan xalqaro terrorchilik mintaqaga xavfsizligiga jiddiy tahdid tug‘dirmoqda.

2012-yilning sentyabr oyida qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qonun O‘zbekiston tashqi siyosatida o‘zining uzoq muddatli milliy manfaatlarini ko‘zlagan asosiy tamoyillarni namoyon qiladi. Ushbu konsepsiya davlatimizning xalqaro maydondagi asosiy tamoyillari, strategik ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi va O‘zbekiston tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining birinchi yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan strategiyaning mantiqiy davomidir. Bu O‘zbekistonning qo‘sni Afg‘oniston bilan munosabatlarida ham o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

4. Terrorchilikka qarshi kurashda O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan hamkorligi. O‘zbekiston va SHHT.

BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta hujjati (11 ta konvensiya va 2 ta protokol) mavjud. Hozirda O‘zbekiston 12 ta ana shunday xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan.

BMT Bosh Assambleyasining 2018-yil 12-dekabrdagi yalpi sessiyasida «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Loyihasi O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat BMTga a’zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston Yevropa Kengashi doirasida ham terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan 7 xalqaro shartnomani imzolagan.

Markaziy Osiyo respublikalari hamkorligi doirasida ham O‘zbekiston ekstremizm, xalqaro terrorizm va narkobiznes xavfni o‘zaro birgalikda bartaraf etish bo‘yicha qator tashabbuslar bilan chiqib, uni ro‘yobga chiqarib kelmoqda. 2000-yil 21-aprelda Toshkentda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston respublikalari terrorizm, siyosiy va ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilik hamda tomonlarning barqarorligiga xavf tug‘diradigan boshqa tahdidlarga qarshi kurashda hamkorlikda harakat qilish haqida shartnoma imzolagani ham buning isboti bo‘la oladi.

Terrorizmga qarshi kurash, uni bartaraf etish masalalariga oid siyosiy-huquqiy hujjatlar nafaqat BMT doirasida, balki Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi, YeXHT, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi tuzilmalar a’zolari bo’lgan davlatlar o‘rtasida ham imzolangan. MDH a’zolari tomonidan 1999-yilning 4-iyunida imzolangan «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi shartnoma» O‘zbekiston MDHdagi aksilterror markazi ishida ham faol qatnashayotganidan dalolat beradi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti tomonidan 2001-yil 15-iyunda «Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash» Konvensiyasi qabul qilindi. Mazkur konvensiya nisbatan qisqa muddatda tashkilotga a’zo barcha mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilindi. O‘zbekiston ekstremistik guruhlarga qarshi kurashda mazkur konvensianing 1-moddasida «ekstremizm» tushunchasiga berilgan ta’rif va undan kelib chiqadigan me’yorlarni asos qilib olganini alohida ta’kidlash o‘rinli.

2002-yil 7-iyunda Shanxay hamkorlik tashkiloti a'zolari o'rtasida imzolangan kelishuv va boshqa hujjatlarda terrorizm, separatizm va ekstremizmning xalqaro tinchlik va xavfsizlikka, davlatlararo do'stona munosabatlarga hamda insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga xavf solayotganligi, shuning uchun barcha tinchliksevar kuchlarning unga qarshi kurashda hamkorlik qilishi zarur ekanligi qayd etilgan.

2004-yil iyunida Shanxay hamkorlik tashkilotining Toshkentda bo'lib o'tgan Sammitida xavfsizlikka tahdidlar masalasida yagona yondashuv va qarash, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, maxsus xizmatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, xalqaro miqyosdagi yetakchi aksilterror markazlari (BMT, Interpol, ASEAN) bilan konstruktiv hamkorlik qilish Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining faoliyatidagi o'ziga xos prinsipial jihatlar ekanligi yana bir bor qayd etildi. Shuningdek, Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmning barcha ko'rinishlari hamda xalqaro jinoiy faoliyatni moliyaviy ta'minlab turgan narkotrafikka qarshi izchil kurashish borasida mintaqa mam-lakatlariga ko'maklashishi zarur.

Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida «uch yovuz kuch», ya'ni «terrorchilik», «ayirmachilik» (separatizm) va «ekstremizm»ga qarshi kurashda hamkorlikni rivojlantirish alohida o'rin tutadi. 2004-yil 1-yanvaridan boshlab, Toshkentda ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda. Bu tuzilma faoliyati tufayli 2005-yilning o'zida ko'plab sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakatlarining oldi olinganligi ma'lum.

Xususan, 2005-yilning iyul oyida tashkilotning Shanxay shahrida bo'lib o'tgan sammitida unga a'zo davlatlar rahbarlari tomonidan bir qator hujjatlar imzolandi. Xalqaro axborot xavfsizligi to'g'risidagi bayonot; terrorchilik, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha 2007—2009-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturiga doir qaror; ShHT mamlakatlari hududida qo'shma aksilterror mashqlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi bitim; a'zo davlatlar hududiga terrorchilik, ayirmachilik va ekstremistik faoliyatga aloqador

kishilar kirib kelishini aniqlash va bunday yo'llarni to'sib qo'yish borasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim shular jumlasidandir. Bundan tashqari ShHT doirasida 2020-yilgacha bo'lgan davrda savdo-iqtisodiy hamkorlikni ko'zda tutuvchi dastur qabul qilingan. Shuningdek, ShHTga a'zo mamlakatlarning huquqni muhofaza qiluvchi idoralari, jumladan ichki ishlar organlarining terrorchilik, separatizm, ekstremizmga va giyohvandlikka qarshi birgalikda harakat qilishi, bu borada o'zaro axborot almashishi yaxshi samara bermoqda.

Shuning bilan birga, O'zbekiston Islom hamkorlik tashkilotiga 1994-yildan a'zo bo'lgan. Mazkur tashkilotning maqsadi musulmonlar birdamligini mustahkamlashga ko'maklashish, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohalarda hamkorlik qilishdan iborat. Shuningdek, irqiy kamsitishlarga, kolonializmning barcha shakllariga chek qo'yish, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga oqilona yondashish, tashkilotga a'zo mamlakatlar orasida va boshqa mamlakatlar bilan o'zaro kelishuv, hamkorlikni rag'batlantirish IHT faoliyatida muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonning yuqorida qayd etib o'tilgan mintaqaviy tashkilotlar ishidagi faol ishtiroki, tashabbuslari va takliflari global xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekistonning tutgan o'rni muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Jumladan, 2010-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining «Mingyillik rivojlanish maqsadlari» bo'yicha oliy darajadagi yalpi majlisida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov nutq so'zлади. Unda terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va narkotrafikka qarshi birgalikda kurashish hamda Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish mavzusiga ham alohida to'xtalib o'tdi. Bu xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik kelgusida ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib qolaveradi.

Takrorlash uchun savolar

1. O'zbekistonning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorligi qanday?
- 2 O'zbekistonda ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borilayotgan siyosatining mohiyati nimada?

3. O‘zbekistonning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorligi nimalarda namoyon boiadi?

Mavzu. Xalqaro terorizmning moliyaviy va iqtisodiy manbalari.

Reja

1. Terror globallashuvini ta’minlovchi omillar.
2. Noqonuniy qurol – yarog’ savdosi xalqaro terrorizmning muhim moliyaviy manbai.
3. Narkobiznes savdosi va uning zararli oqibatlari.
4. Neft va odam savdosi. Odam savdosiga qarshi kurashda profilaktik tadbirlarning ahamiyati.

Tayanch tushunchalar

Terror globallashuvini ta’minlovchi omillar. Xalqaro terrorizmning moliyaviy manbalari. Noqonuniy qurol – yarog’ savdosi xalqaro terrorizmning muhim moliyaviy manbai. Narkobiznes savdosi va uning zararli oqibatlari. Neft va odam savdosi. Odam savdosiga qarshi kurashda profilaktik tadbirlarning ahamiyati.

1. Terror globallashuvini ta’min etuvchi omillar. Jamiyat hayotining turli sohalarining keskin globallashuvi transmilliy jinoyatchilikka, xalqaro terrorchilarga o‘z xatti-harakatlarini emin-erkin amalga oshirishga bir muncha imkoniyatlar ham yaratib bermoqda. Jahan maydonida iqtisodiy sohadagi amalga oshirilgan bir qator ijobjiy o‘zgarishlar borki ular o‘z navbatida terrorchilikning, transmilliy jinoyatchlikning tarqalishiga ham yo’l ochib berdi. Bu imkoniyatlar nimalardan iborat:

Birinchidan, davlatlar o’rtasida, xalqaro maydonda iqisodiy va ijtimoiy munosabatlarning, aloqalarning yuksalishi bilan bog’liq. Chegaralarning ochib berilishi (Shengen hududi, YEI, vizasiz harakat qilish zonalari tashkil etilishi), chet mamlakatlarga chiqish tartibining yengillashtirilishi, xalqaro savdoning kengayishi, yangi-yangi bozorlarning paydo bo’lishi, xalqaro yuk tashish hajmining oshishi xalqaro hamjamiyatning, insoniyatning og’irini yengillashtirib qolmasdan transmilliy jinoyatchi guruhlar faoliyatining faollashuviga ham olib kelmoqda.

Ikkinchidan, keyingi yillarda xalqaro moliyaviy o‘tkazmalarni aql bovar qilib bo‘lmaydigan darajada tezlashtiruvchi kanallar tizimi tashkil etilmoqda. Bu tizim kerakli miqdordagi pulni zarur joyga, kerakli insonga, tashkilotga yetkazib bermoqda. Bunda bir tomondan muayyan davlatga undagi moliyaviy oqim harakatini nazorat etish bilan bog’liq muammolar kelib chiqsa, ikkinchi tomondan shuni unutmaslik kerakki bunday imkoniyatdan jinoyatchi guruhlar ham birdek foydalanadi.

Uchinchidan, jinoyatning globallashuvi aholi migrasiyasi va chet elda ta’lim olish bilan ham bog’liq kechmoqda. Katta miqdordagi aholi migratsiyasi natijasida ayrim davlatlarda o‘ziga xos etnik diasporalar shakllanmoqda. Jinoyatchi guruhlar esa o‘ziga tegishli diaspora vakillaridan o‘z jinoiy qilmishlarini amalga oshirishda foydalanishmoqda. Bu jinoiy guruhlarga xos bo’lgan milliy birlik, til, qadriyatlar birligi, yaqin qarindoshlik aloqalari jinoiy guruh tarkibiga begona kishilarning, maxsus xizmat vakillarining kirib olishiga imkon bermaydi.

To‘rtinchidan, jinoyatning globallashuviga jahon mamlakatlari qonunchilik, sud-tartibot tizimidagi rang-baranglik, jiddiy tavofutlar ham yaqindan xizmat qilmoqda. Yaqin-yaqingacha terroristik harakat ishtirokchilari bir-biri bilan diplomatic munosabatlar o‘rnatmagan davlatlardan panoh topishgan, yashirinishgan. Bunga misol qilib SSSR-Isroil, SSSR-Pokiston, GDR-GFR va boshqa davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni keltirish mumkin. Ayni damda esa ayrim davlatlar jinoyatchiga, terrorchi guruhga haq-huquqlari cheklangan, “demokratiya” dan to‘yib nafas olmagan deb hisoblab unga siyosiy qochoq maqomini berib o‘z himoyasiga olishmoqda. Shuningdek xalqaro jinoiy guruhlarga sud-tartibot tizimi yaxshi rivojlanmagan davlatlarda o‘z moliyalarini yashirish, soliqdan qochish imkonini bermoqda.

Beshinchidan, ikkita tizimning bir-biriga ishonchsizlik bilan qarashi, bir-birining xatti-harakatlarini qattiq nazoratga olishi jinoiy guruhlar faoliyatiga ham daxldor edi. Sotsialistik lager mamlakatlarida aholining ko’chish bilan, chetga chiqish bilan bog’liq harakati, umuman kundalik faoliyati kuchli nazorat ostiga olingan edi. G‘arb va Sharq o‘rtasida uzoq davom etgan “Sovuq urush” tugashi bilan o‘rtadagi temir parda olib tashlandi, “Berlin devori” to‘sinq bo’lmasdan qoldi. Zamonaviy savdo

munosabatlariga ba’zi davlatlarning qonunchilik, soliq, boj tizimining tayyor emasligi bunday davlatlarning hududlari qonuniy tovarlarga, narkotik, kimyoviy, radioaktiv mahsulotlar uchun birdek tranzit maydon bo’lib xizmat qildi.

Oltinchidan, jahoning ko’pgina mamlakatlarida demokratik jarayonlarning qaror topishi qiyinchilik bilan kechmoqda. Oldingi totalitar tizimning boshqaruva richaglaridan keskin voz kechish, yangi demokratik tizimni barpo etish mobaynida o’ziga xos “bo’shliqqa” yo’l qo’ydi. Bu esa jinoiy guruhlarga yashirinish, moliyalarini, man etilgan tovarlarni yashirish, olib yurish imkonini berdi.

Yettinchidan, jamiyat hayotining turli sohalarida xalqaro aloqalarning yuksalishi bilan bir qatorda kommunikasiyalar tizimi, kommunikasiyalar vositalari, internet, teleradio informasiyalar ham keng tarqaldi. Bu vositalar, kanallar orqali turli rang-barang mazmundagi ma’lumotlar bilan bir qatorda ekstremizmni, fashizmni targ’ib etuvchi vayronkor mazmundagi g’oyalar, kriminal hodisalarning turli usullari, vositalari ham targ’ib etilmoqda.

2. Noqonuniy qurol – yarog’ savdosi xalqaro terrorizmning muhim moliyaviy manbai. Bugungi kunda xalqaro maydonda terrorchi guruhlar turli yo‘nalishlarda, sohalarda o‘z xatti-harakatlarini amalga oshirishmoqda. Albatta bu guruhlar o‘z xatti-harakatlarini yo’lga qo‘yishlarida ularga katta hajmdagi moliyaviy manba zarur bo’ladi: qurollanish, maxsus tayyorgarlik lagerlari, instruktorlar, odam yollovchilar, targ’ibot-tashviqot, guruhnинг moddiy ta’mnoti, maoshi va shu kabilar. Terrorchilik guruhlari olis o‘tmishda bo’ladimi, bugungi kunda bo’ladimi o‘z faoliyatini yo’lga qo‘yishlarida moliyaviy ta’mnotga muhtojlik sezishgan. Terrorchi guruhlar faoliyati, ular tomonidan amalga oshirilayotgan hatti-harakatlar tahlil etilganda shunday voqelikning guvohi bo’lish mumkinki u albatta o‘z atrofiga teran nazar tashlaydigan har bir insonni hayratga solishi turgan gap: terrorchi guruhlar qo’liga yirik partiyadagi qurol-yarog’ning qanday kelganligi va uning uzluksiz ta’mnoti; ular tayyorgarlik o‘tayotgan harbiy lagerlar qayerda joylashgan va qanday qilib; xalqaro ijtimoiy tarmoqning qaysi saytlari ular faoliyatining targ’ibotiga joy ajratmoqda; eng asosiysi ushbu maqsadlarga sarflanayotgan katta mablag’larlar qaysi manbalar hisobidan olinadi?

Xalqaro terrorizmning moliyaviy va iqtisodiy manbalari xususida gap borganida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

Birinchidan, AQSH boshchiligidagi imperialistik dunyo bilan SSSR boshchiligidagi sotsialistik dunyo o‘rtasida xalqaro maydonda o‘z ustunligini o‘rnatish uchun uzoq davom etgan tarixiy kurash Bipolyar tizim deb nom olgan bu davrda jahonning eng yirik ikkita bu qudratli davlati hech qachon bir-biriga ochiq kurashga chiqishga botina olishmagan. Ular faqat tomonlardan biriga qarshi qaratilgan har qanday harakatni (xoh terrorchi bo’lsin) barcha yo‘llar bilan qo‘llab-quvvatlashgan.

Ikkinchidan, ushbu “buyuk” qarama-qarshilikning mantiqiy davomi sifatida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi, shuningdek Sharqiy Yevropadagi mustamlaka tizimga qarshi olib borilayotgan milliy ozodlik kurashi muhim o‘rin tutada. Bu milliy ozodlik harakatlari kimga qarshi qaratilganidan qat’iy nazar ular o‘z “homiyalar” ega bo‘lishdi.

Tomonlardan birining xalqaro maydondagi ustunligini ta’min etishi mumkin bo‘lgan qarshilik harakati barcha yo‘llar bilan qo‘llab-quvvatlandi. Masalan o‘z davrida afg‘on mujohidlarining sovet qo‘sishinlariga qarshi kurashi AQSH tomonidan moliyaviy, harbiy-texnik jihatdan ta’minlab kelindi. Kurashning samarali bo‘lishi uchun AQSH harbiy sir demasdan “ozodlik” kurashchilarini eng yangi turdagি quroq-aslahalar bilan ta’minladi. Biroq sovet qo‘sishinlar afg‘on tuprog’ini tark etishgach bu qurollarni qaytarib olishning imkonini bo’lmadi. 2001-yil 11-sentabridan keyin AQSH ning o‘zi afg‘on mujohidlariga qarshi urushga kirganida mujohidlar aynan ushbu qurollarni ishga solishdi.

Uchinchidan, arab-isroil mojarasi yechimi o‘z nihoyasiga yetmayapti. Bu o‘rinda ham shuni aytish mumkinki, bu kurash natijasidan o‘z manfaatini axtaradigan tashqi kuchlar mavjud. Bu esa mintaqadagi terrorchi guruhlar faoliyatining kengayishiga sabab bo‘lib kelmoqda.

To‘rtinchidan, jamiyat hayotining turli sohalarida kechayotgan globallashuv “demokratik” tusdagi terrorchilikning, milliy va etnik tusdagi terrorchilikning, diniy tusdagi terrorchilikning, so‘l va o‘ng ekstremistik kuchlar hatti-harakatini chetlab

o‘tayotgani yo‘q. Bunday tusdagi turli ko‘rinishdagi hatti-harakatlar, mafkuraviy oqimlar o‘z faoliyatining “tantanasi” uchun yeng shimarib ishga kirishishi tabiiydir.

Ikkinci ming yillik yakunida ikki qutbning siyosiy, g‘oyaviy, harbiy qarama-qarshiligidagi asoslangan bipolyar tizim tugadi. Lekin ko‘pchilik kutganidek dunyo tinch, muammosiz bo‘lib qolgani yo‘q. Ayniqsa kommunistik mafkuradan xoli bo‘lgan mintaqalarda turli mazmundagi kuchlar o‘z tartibotini joriy etishga shiddat bilan kirishishdi. Albatta turli g‘oyaviy-mafkuraviy yo‘nalishlarga ega bo‘lgan terrorchilik tashkilotlari ham bundan mustasno emasdi.

Terrorchilik hatti-harakatlari uzoq tarixiy davrni bosib o‘tdi. Ijtimoiy taraqiyot natijasi samaralari sabab ularning ham “hatti-harakat” usul va vositalari rivojlanib, kengayib bordi. Vaqt o‘tgan sari terrorchi guruhlarning ehtiyojlari, maqsadlari, vazifalari ham zamonda, ham makonda kengayib bordi. Bu esa o‘z navbatida kuchli moliyaviy manbalarni talab etardi. Natijada terrorizm uyushgan jinoyatchilik bilan yaqinlashib bordi. Giyohvand moddalar savdosi, nolegal qurol-yarog‘ savdosi, odam savdosi, kontrabanda avj ola boshladи.

Terrorchi, transmilliy jinoiy to‘dalar tomonidan amalga oshirilayotgan eng serdaromad sohalardan yana biri yashirincha qurol savdosi hisoblanadi. Bu “biznes” ham mintaqaviy mojarolar va mahalliy urushlarning to‘s-to‘polonidan foydalanib qoluvchilarga katta daromad keltirmoqda. Bunday korchalonlar uchun qurolli qarama-qarshilikni davom ettirish va keskinlikni saqlab turish qurol-yarog‘larning yashirin bozorini kengaytirish uchun eng yaxshi shart-sharoit ekanligi hammaga ma’lum.

Yashirincha qurol sotish xalqaro terrorizm deb atalmish jinoiy hodisa bilan birga yuradi, ba’zan esa uni keltirib ham chiqaradi. O‘zgalar qonini to‘kish hisobiga mo‘may daromad olishni istovchilar anchagina topiladi. Bu toifaga kiruvchi “bizneschilar” uchun qon va noplak siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko‘rish mumkin bo‘ladigan mojarolarni rag‘batlantirish borasida eng qulay vosita bo‘ladi. Tadqiqotchi Sh.G‘oyibnazarovning keltirishicha 1990 yillarda nolegal qurol-yarog‘ savdosi 1-2 mlrd. dollarni tashkil etgan bo‘lsa, qator harbiy harakatlar sodir etilayotgan yillarda

(Yugoslaviya inqirozi) bu ko'rsatkich 5-10 mld. dollarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich qiyosiy tahlil etilganida quroq - yarog'savdosida jahonda yetakchi davlatlardan AQSH ning oddiy qurollar savdosi bo'yicha amalga oshiradigan eksport hajmiga tenglashib boradi⁵. O'z navbatida haqli savol tug'iladi: noqonuniy quroq-yarog' savdosi bilan shug'ullanayotgan uyushgan jinoyatchilik olamining qo'liga, yoki terrorchi tashkilotlar qo'liga katta partiyadagi bunday zamonaviy qurollar qanday kelib qolmoqla? Axir uyushgan jinoyat olamining, yoki terrorchi guruhlarning so'nggi fan-texnika yutuqlaridan foydalanilgan holda ishlab turgan qator zavod-korxonalar mavjud bo'lmasa? Afg'oniston, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrikada, shuningdek dunyoning qator mintaqalarida terrorchi guruhlar tomonidan qo'llanilayotgan eng so'nggi namunadagi zamonaviy quroq-aslahalar rasmiy hukumatlar nazoratida turgan harbiy-sanoat komplekslarida ishlab chiqarilgan emasmi?

XX ikkinchi yarmida ro'y bergan jangovar harbiy to'qnashuvlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak aksariyat holatlarda kurashayotgan qaysidir tomonni, xoh terrorchi bo'lsin noqonuniy tarzda rasmiy hukumatlar qo'llab kelishgan. Buni 1950-yilning 25-iyunidan – 1953-yilning 27-iyuligacha davom etgan Koreya urushida ko'rish mumkin. Kim Ir Senning Koreyani birlashtirish yolidagi harakatidan norozi bo'lgan AQSH va uning ittifoqchilari BMT bayrog'i ostida KXDR ga qarshi urush boshlashdi. KXDR SSSR va Xitoyning harbiy ko'magiga tayanar edi. Agar Xitoy KXDRni qo'llab-quvvatlash uchun sal kam bir million kishilik armiyani harbiy harakatlarga safarbar qilgan bo'lsa, SSSR harbiy-texnik tomonidan katta yordam ko'rsatdi. To'g'ri kam sonli bo'lsada uchuvchilar, zenitchilar va harbiy maslahatchilar guruhi yuborilgan edi. Tarixda Koreya urushi deb nom olgan bu urush aslida AQSH va uning ittifoqchilari bilan SSSR o'rtasidagi urush edi. AQSH va uning ittifoqchilari BMT bayrog'i ostida harakat qilishgani bois ular mintaqaga quroq-aslahalarni yetkazib berishga haqli edi. Lekin sovet tomonining hattiharakatlari o'z geosiyosiy manfaatlarini himoya qilishdan boshqa narsa emas edi.

⁵ G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T., 2009, 64-b

Shu sabab sovet harbiylari niqob ostida harakat qilishga majbur boiishdi. KXDR va XXR armiyalarini zamonaviy qurollar va maslahatchilar (instruktorlar) bilan ta'minladi. Ikkinci jahon urushi davrida SSSR va XXR hududiga joylashgan koreyslardan partizan otryadlari tuzilib, ular zamonaviy qurollar bilan ta'minlab turildi. XX asming ikkinchi yarmidagi eng katta harbiy to'qnashuv o'z poyoniga yetgach bu qurollar dom-daraksiz ketdi. Ularning aksariyati oldi-sotti yo'li bilan uyushgan jinoyatchilar, yoki turli mintaqalardagi terrorchilar qo'liga yetib bordi.

1957-1975-yillarda V'etnam urushida ham deyarli yuqoridagi senariy takrorlandi: noqonuniy qurol yetkazib berish; tinch aholini, partizanlarni qo'llab-quvvatlash, ularni qurollantirish; tomonlarni qo'llab-quvvatlamagan tinch aholi punktlarini yo'q qilish va shu kabilar. Albatta bunday harbiy to'qnashuvlarning keyingisi sifatida afg'on urushini (1979-1989) ko'rsatib o'tish mumkin. Bu urush musulmon dunyosida ro'y berganligi bois o'zgacha qiyofa aks etdi. Ma'lumki sovet davlati ateistik siyosat yuritar edi. Markaziy Osiyo musulmonlarini "dinsiz" hukumatdan xalos etish maqsadida olib boriladigan "jihod" da ishtirok etish uchun qo'shni Afg'oniston, shuningdek boshqa musulmon mamlakatlarida maxsus lagerlar tashkil etiladi. Javob yurishi tariqasida 1979-yilning dekabrida sovet qo'shnulari qo'shni afg'on tuprogiga bostirib kirishdi. Bu "jihod?" da ishtirok etayotgan har qanday terroristik tashkilot jangarilari AQSH tomonidan "ozodlik lashkarlari" deya e'tirof etildi. "Tolibon", "Al-Qoida", ISHID singari terrorchi tashkilotlarning aksariyati shu paytda tashkil etildi. Ularning barchasi eng so'nggi nusxadagi zamonaviy qurol-aslahalar bilan ta'minlandi. Albatta bu qurollar ko'pchilik holatlarda maslakdosh bo'lgan boshqa tashkilotlar qo'liga ham o'tar edi.

Qo'sh formatda ish yuritish siyosatini qurol-aslaha savdosida ham kuzatish mumkin: 1990-yilda Yugoslaviya inqirozi sabab Serbiyaga qurol-aslaha sotish taqiqlandi. Lekin xorvat, bosniya va alban jangarilariga qurol-aslahalar yetkazib berilishi ma'qullandi. Shunday ekan aytish mumkinki noqonuniy qurol-aslaha savdosи faqatgina terrorchi tashkilotlar, yoki uyushgan jinoiy tashkilotlar (mafija) tomonidangina emas, rasmiy hukumatlar tomonidan ham olib borilmoqda. Faqatgina unutmaslik lozimki ular tomonidan yetkazib berilayotgan bozorlar o'rtasida o'ziga

xos umumiylit mavjud. Bu umumiylit shundaki, katta partiyadagi qurol-aslahani qabul qilib olgan terrorchilar bu qurolning bir qismini ikkinchi bir mintaqada kurash olib borayotgan o‘z sheriklariga sotib yuborishgan.

Shunday ekan terrorchi tashkilotlaming moliyaviy manbalaridan biri bo’lmish noqonuniy qurol-aslaha savdosi haqidagi tahlillarga yakun yasagan holda quyidagi xulosalami ilgari surish mumkin:

Birinchidan, qora bozorda sotilayotgan qurol-aslahalarning barchasi legal iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan. Yashirin guruhlar o‘z harbiy-sanoat majmulariga, ilmiy-konstrukturlik markazlariga ega emas. Noqonuniy qurol-aslaha savdosining ilk manbai rasmiy hukumatlar bo‘lib chiqadi.

Ikkinchidan, bir paytlari AQSH boshchiligidagi imperialistik dunyo bilan SSSR boshchiligidagi sotsialistik dunyo o’rtasida xalqaro maydonda o‘z ustunligini o‘rnatish uchun uzoq davom etgan tarixiy kurashning yangicha ko’rinishlarda, yangi ishtirokchilar bilan davom etayotganligini ko’rish mumkin.

Uchinchidan, xalqaro maydonda harakat qilayotgan terrorchi tashkilotlar ma’lum bir darajadagi o‘z maqsad-manfaatlariga ega bo’lgan tashkilot bo‘lsada, aslida erki o‘zida bo‘lman, o‘zidan ustun qaysidir kuchning maqsadlari yo‘lida xizmat qilayotgan bir vositadan boshqa hech narsa emas. Terrorchi tashkilotlar o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki vujudga keltiriladi.

3. Narkobiznes savdosi va uning zararli oqibatlari. Neft va odam savdosi. Terrorchi tashkilotlar moliyaviy manbalarining yana bir muhim turi giyohvand moddalar savdosidir. Narkotik moddalar ishlab chiqarish va ular bilan savdo qilish jinoyat globallashuvining keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jinoiy biznes yaratib beradigan juda katta boylik orttirish imkoniyatlari uning ishtirokchilarini xalqaro huquq normalari bilan ham, milliy qonunlar majmui bilan ham, ayniqsa, ‘oq ajal”ning halokatli oqibatiari bilan ham hisoblashmay, hamma ishni qilishga majbur etmoqda. BMT tomonidan keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda bu zahri qotil savdosining yillik aylanmasi 350-450 millard dollarga teng bo‘lib bu miqdor jahon hamjamiyatining bir yillik yalpi daromadining 7% ga teng. Taxminiy ma’lumotlarga qaraganda jahon aholisining 3% i giyohvand moddalar iste’mol qiladi.

Bu turdag'i jinoiy to'dalarga qarshi kurashishga turli davlatlar turlicha vaqt va mablag' sarflashmoqda.

AQSH federal organlari yiliga 12 milliard dollar mablag'ni narkotik savdosiga qarshi kurashga sarflashadi; 45 milliard dollarga teng mablag' narkotik savdosi bilan qo'lga tushganlarni saqlab turish bilan bog'liq jarayonga sarflanadi; 120 milliard dollar narkomaniya kasaliga chalinganlarni davolash ishlariga sarflanmoqda⁶. Bu moddalarni ishlab chiqaruvchi asosiy regionlar: Oltin yarimoy (Golden Crescent) – Afg'oniston, Eron, Pokiston; Oltin uchburchak (Golden Triangle) – Myanma, Laos, Tailand; Janubiy Afrika; Niderlandiya; Marokash; Xitoy. Xitoyda asosan sintetik narkotik moddalar ishlab chiqariladi⁷.

Yuqori navli geroinning eng katta bozori Yevropa hisoblanadi. BMT ma'lumotlariga qaraganda faqat Rossiyaning o'zida yiliga 70 tonna heroin sotiladi. Rossiyada bu kasallik sababli bir yilda vafot etganlar (yiliga 30 000-40 000 nafar) Sovet armiyasining o'n yil davom etgan afg'on urushidagi yo'qotishidan ikki-uch barobar ko'pdir⁸.

Narkotik moddalar savdosi azaldan globallashuvga ehtiyoj sezib keladi. Bir tomondan rivojlangan, xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilgan, kuchli iqtisodiyot va sud - huquq tizimiga ega mamlakatlarda bunday zahri qotilni yetkazib berish imkon yo'qligi bilan belgilanadi. Ikkinci tomondan xavfsizlik tizimi yo'lga qo'yilmagan, qoloq davlatlarda bu moddalarni yetkazish imkoniyati katta, lekin uni iste'molchilar mavjud emas. Bo'lganida ham narxi jinoiy to'dalarni qanoatlantirmaydi. Misol tariqasida quyidagi faktlarga e'tibor qaratamiz: afg'on geroini Tojikiston orqali Yevropaga yetib borgunicha 63 barobarga ortadi. Tojikiston Badaxshonida 1 kg geroin 4-8 ming dollar, Yevropada 250-300 ming dollar.

4. Odam savdosi. Odamlar savdosi - bu alohida shaxsni (yoki guruhni) yollash, ularni bir davlat chegarasi doirasida yoki chegarasidan tashqariga olib ketish bilan bog'liq bo'lgan barcha harakat yoki maqsadlar bo'lib, u o'z ichiga sotish, sotib olish, topshirishi, bunday harakatlarni foyda ko'rish yoki shunchaki bunday shaxsni

⁶ http://kontinent.org/article_rus_491505d8eye0c8.html

⁷ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Наркоторговля>

⁸ <http://Libymox/tu/p=12463/ONN prizivoet k obedineniyu v borbe protiv organizovoimoy prestupnosti>.

keyinchalik aldab yoki majburlab (zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqtib), shuningdek, xizmat mavqeini suiste'mol qilish yo'li bilan ishlatish maqsadida ushlab turishni, shuningdek, shaxsni xohishiga qarshi holda qulchilik sharoitida haq to'lash yoki to'lamasligidan qat'i nazar ushlab turishni ham o'z ichiga oladi⁹.

Tadqiqotchi A.Repeskayaning fikriga ko'ra, odam savdosi deganda, shaxsni sotib olish yoki unga qarshi qaratilgan boshqa qonunga xilof bitimlarni, shuningdek, shaxsni qo'lga kiritish va undan har qanday foyda olish uchun foydalanish va nazorat ostiga olishni yoki har qanday shaklda ekspluatasiya qilish maqsadi va ayriboshlashni bildiradi¹⁰. Nemis olimi Leo Kaydel esa odam savdosi muammosini chuqr o'rgangan holda, u uyushgan jinoyatchilikning asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanib, kriminal faoliyat iyerarxiyasida beshinchi o'rinni egallaydi¹¹, degan fikri bildirib o'tgan.

Odam savdosi - inson, uning sha'ni, qadr-qimmati, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgan transmilliy uyushgan jinoyatchilik ko'rinishlaridan biri bo'iib, o'zining chegara tanlamasligi hamda girdobiga asosan yoshlarni va ayollarni tortayotganligi bilan barchada katta tashvish va xavotir uyg'otmoqda. Mazkur jinoiy faoliyatning motiv va maqsadi g'araz, ya'ni moddiy foyda yoki daromad ko'rishni ko'zda tutadi. Chunki odam savdosidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad jinoyatchining o'zi yoki boshqa shaxslar orqali pul yoki boshqa moddiy boyliklarga ega bo'lish hisoblanadi.

M.X.Rustamboyevning ta'kidlashicha, odam savdosi - hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Undan keladigan daromad giyohvand moddalar va qurol savdosidan so'ng uchinchi o'rinda turadi¹². BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning ma'lumotiga ko'ra, jahonda har yili taxminan 3 milliondan ortiq kishi odam savdosining qurbaniga aylanmoqda. Yiliga 600 mingdan 800 minggacha ayollar va

⁹ Долголенко Т.В. Уголовная ответственность за торговлю людьми, 2004. - № 2. - S.23-25.

¹⁰ Репецкая А. Торговля людьми. Социокриминалистический анализ М.2002.С. 84

¹¹ Leo Keidel Menschendel ols Pphenomen Organisierte Kriminolit/ Kriminalistik. No/ 5, p. 325

¹² Rustamboev M.X. Odam savdosi. —T.: TDYI nashrivoti, 2009, 12-bet.

bolalar turli aldov yo‘llari bilan chet ellarga olib ketilib, ekspluatatsiya qilish maqsadida sotib yuborilmoque, shuningdek jinoiy guruqlar uchun odam savdosi juda katta daromad keltiradigan manbadir. Jinoyatchilikning mazkur turidan keladigan daromadning yillik aylanmasi 32 mld AQSH dollarini tashkil etadi. Jinsiy ekspluatasiya, majburiy mehnat, bolalar mehnatini ekspluatasiya qilish shu darajada keng tarqalganki, natijada hozirgi kunda millat genofondiga, shu bilan birga milliy xavfsizlikka jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Bunday holatda har qanday madaniyati rivojlangan mamlakat mazkur jinoiy faoliyat turi bilan kurash bo‘yicha barcha zarur choralarni ko‘rishi lozim. Odam savdosi biror-bir davlatni chetlab o‘tgan yoki qaysidir davlat ushbu jinoyatdan to‘liq himoyalangan deb ayta olmaymiz. Shu sababdan ham O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatini tashvishga soluvchi ushbu xavfga birgalikda qarshi kurashish uchun hamkorlikka alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

Bu borada O‘zbekiston 60 dan ortiq xalqaro hujjatga qo‘silib, xorijiy davlatlar bilan uyushgan jinoyatchilik, shu jumladan odam savdosiga qarshi kurashga qaratilgan 29 ta shartnoma va kelishuvlarni imzoladi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro darajada davlatlarning odam savdosiga qarshi kurash bo‘yicha aniq majburiyatlarni belgilab beruvchi BMTning 1950-yilda qabul qilingan “Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanilishiga qarshi kurash to‘g‘risidagi”gi Konvensiyaga qo‘sildi hamda BMTning 2000-yil 15-noyabrdagi 55/25-sonli rezolyusiyasi bilan qabul qilingan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to‘ldiruvchi “Odam savdosining, ayniqsa ayollar va bolalar savdosini oldini olish hamda unga chek qo‘yish va uning uchun jazolash haqida”gi protokolni 2001-yil 28-iyunda ratifikatsiya qildi. Unga ko‘ra, Odam savdosi - odamlardan foydalanish uchun ularni yollash, tashish, berish, yashirish yoki odamlarni qo‘rqitish asosida kuch bilan boshqa vositalarni qo‘llash orqali yoki boshqa majburlov vositalari, o‘g‘rilik, tovlamachilik, aldov, hokimiyatni suiste’mol qilish, yohud mansab mavqeyidan foydalanib, sotib olish yo‘li bilan qo‘lga kiritishni anglatadi.

Mustaqil O‘zbekiston davlati ham ushbu yo‘nalishda bunday tahdid va xavflardan himoyalanishda, shuningdek, odam savdosiga qarshi kurash va oldini olishdagi ishlarni mustahkam huquqiy baza yaratishdan boshladi.

Shu maqsadda 2008-yilda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga odam savdosi uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi modda kiritildi. Jinoyat kodeksining 135-moddasi [birinchi qismi](#) dispozitsiyasi mazmuniga ko’ra, odam savdosi deganda, odamni olish-sotish yoki odamni ekspluatatsiya qilish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish tushuniladi. Shuningdek, odam savdosining ko‘p tarqalgan ko‘rinishi bo‘lgan majburiy mehnat “Aholini ish bilan ta’minalash to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasi hamda Mehnat kodeksining 7-moddasi bilan taqiqlandi.

2008-yil 17-aprelda “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi va mazkur qonun bilan Odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining tuzilishi Transmilliy jinoyat hisoblangan odam savdosiga izchil va tizimli qarshi kurash borasida mamlakatimizda olib borilayotgan huquqiy siyosatning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Odam savdosi xalqaro hamjamiyat tomonidan inson, oila va jamiyat farovonligiga xavf tug‘diruvchi akt sifatida baholanadi.

Albatta bunday “marhamat”dan ishidchilar ham, boshqa terrorchi guruqlar ham chekkada qolishmadi. Bolalarni, ayollami, qizlarni turli maqsadlarda sotish, inson organizmlari (transplantasiya maqsadlarida) bilan savdo qilish ularning asosiy daromad manbalaridan biri bo‘ldi.

Ishidchilar nazoratida bo‘lgan geografik hududlar tahlil qilinganda, bugungi Suriya va Iraq hududiga kiruvchi bu o‘lkalarda nihoyatda yirik neft konlari joylashgan edi. Albatta ISHID bu neftni qora bozorda arzon narxlarda pullab keladi. Har bir barrel neftning narxi jahon bozoridagi neft narxidan ikki barobar kamiga sotilib, kuniga uch million dollargacha daromad qilingan.

Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy terrorchilik katta mablag‘larni talab etadi. Ularga moliya suv va havodek zarur. Kezi kelganda ta’kidlab o‘tish joizki ishidchilar

safida, ularning turli darajadagi lavozimlarida o‘tirganlarning ichida hammasi ham musulmon emas. Daromad evaziga jang qilayotganlari anchaginani tashkil etadi.

Yangi ming yillik vabosi bo‘lmish terrorizmga qarshi kurashning eng oqilona yo‘li xalqaro hamjamiyatning umumiy hamkorligini talab etadi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Terror globallashuvini ta’min etuvchi omillar?
2. Terrorizmning moliyaviy manbalari nimalardan iborat?
3. Noqonuniv qurol –yarog’ savdosi xalqaro terrorizmning moliyaviy manbai ekanini asoslang.
4. Narkobiznes savdosi va uning zararli oqibatlari qanday?
5. Odam savdosi eng jirkanch hodisa ekanini izohlang.

Mavzu. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy huquqiq asoslari

Reja

1. IKT tuzilishi, mohiyati, ustavi va uning islom tartibotini shakllantirishdagi faoliyati.
2. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari.
3. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to’g’risida”gi yangi konvensiya va uning ahamiyati.
4. Terrorchilikka qarshi kurashda SHHT ning Toshkent sammitining ahamiyati.

Tayanch tushunchalar

IKT tuzilishi, mohiyati, ustavi va uning islom tartibotini shakllantirishdagi faoliyati. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to’g’risida”gi yangi konvensiya va uning ahamiyati. Terrorchilikka qarshi kurashda SHHT ning Toshkent sammitining ahamiyati.

- 1. IKT tuzilishi, mohiyati, ustavi va uning islom tartibotini shakllantirishdagi faoliyati.**

Dunyo musulmonlari davlatlari o'rtasida halqaro harakat tuzish g'oyasi Islom pakti harakati misolida 1969 yilga kelib siyosiy reallikka aylandi. Aynan shu yili Marokash poytaxti Rabot shahrida oliy darajadagi musulmon davlatlari konferensiyasi ish boshladi. Bu konferensiya Islom konferensiyasi tashkilotining tuzilish jarayonini boshlab berdi.

Umuman olganda musulmon davlatlari o'rtasidagi ushbu ko'rinishdagi, yoki unga o'xhash tashkilot tuzish zaruriyati ikkinchi jahon urushi tugashi bilan ko'zga tashlangan edi. Ma'lumki musulmon davlatlari uzoq yillar davomida rivojlangan G'arb davlatlarining mustamlakasi bo'lib kelishdi. Urushdan keyin tabiiy zahiralarga boy bo'lgan musulmon davlatlari jahon bozorida o'ziga xos o'rin egallashi va shu tariqa qisqa muddat ichida rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishlari mumkin edi. Buning uchun ular birinchi galda mustamlakachilik sirtmog'idan xalos bo'lishlari, o'zaro nizolarni bartaraf etishlari, hamkorlikda ish olib borishlari lozim edi. O'lkada hukm surayotgan feudal munosabatlarga qarshi, kolonial siyosatga qarshi aholi faolligini oshib borishini ham rag' batlantiruvchi, ham yo'naltiruvchi uyushma tuzish zaruriyatga aylanib qolgan edi. Bu jarayoning targ'ibotchisi bo'lib Saudiya Arabiston maydonga chiqdi. U bu harakatda Quddusdagi Al-Aksa masjidining yoqib yuborilishiga alohida urg'u beradi.

Islom konferensiyasi tashkiloti - Afg'oniston, Chad, Misr, Gvineya, Indoneziya, Eron, Iordaniya, Quvayt, Livan, Liviya, Malayziya, Mali, Mavritaniya, Marokash, Niger, Ummon, Pokiston, Qatar, Saudiya Arabiston, Senegal, Serra-Leone, Somali, Sudan, Tunis, Turkiya, Yaman davlat vakillari tomonidan tashkil etilgan. IKT ga Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston (1992), Qozog'iston (1995), O'zbekiston (1996) ham a'zo bo'lib kirishgan. Bugungi kunda 57 ta davlat uning a'zosi hisoblanadi.

IKT ustavidan ko'zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- tashkilotga a'zo musulmon davlatlar o'rtasida birdamlikni kuchaytirish;
- ular o'rtasida ijtimoiy hayotning turli - iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalarda

hamkorlikni kuchaytirish, halqaro munosabatlarda hamkorlik qilish;

- mustamlakachilik va irqchilikning har qanday ko‘rinishlariga barham berish;
- tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashga doir adolatli choralar ko‘rish, muqaddas

qadamjolarni asrash, ozod qilish sohalaridagi faoliyatni uyg‘unlashtirish;

- tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni va o’zaro bir-birini tushunish uchun zarur sharoitlar yaratish va boshqalar.

IKT o‘z faoliyatida quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- tashkilotga a’zo davlatlaming tengligi;
- a’zo mamlakatlar o‘z taqdirini o‘zi belgilashi huquqini hurmat qilishlari, bir-

birining ichki ishlariga aralashmasligi;

- har bir davlatning hududiy yaxlitligi, suverenitetini hurmat qilish;
- turli kelishmovchiliklami tinch yo‘l bilan hal etish;
- o‘zaro munosabatlarda kuch ishlatish, tahdid qilish usullarini qo‘llamaslik, har-bir a’zo mamlakat hududining yaxlitligi va daxlsizligini hurmat qilish.

IKT boshqaruv organlari quyidagilardan tashkil topgan: davlat va hukumat boshliqlari konferensiyasi; tashqi ishlar vazirlari konferensiyasi; Bosh Sekretariat.

Davlat va hukumat boshliqlari konferensiyasi IKT oliy boshqaruv organi bo‘lib musulmon dunyosiga dahldor bo‘lgan masalalar yuzasidan har uch yilda o‘z yig‘ilishini o‘tkazib turadi.

IKT ning halqaro terrorizmga qarshi konvensiyasida terrorizmni hech qanday sharoitda, hech qanday yo‘l bilan oqlab boimasligiga alohida e’tibor beriladi.

Terrorizimga qarshi kurash konsepsiyasini ishlab chiqishda quyidagi maqsadlar

nazarda tutilishi belgilab qo‘yilgan:

- ekstremizm shaklidagi terrorchilik harakatlarini, insoniyatga qarshi qaratilgan har qanday zo‘ravonlikni qat’iy rad etish, inson huquqini himoya qilishga

qaratilgan halqaro huquq qoidalarini, tamoyillarini hurmat qilish, xalqlar o‘rtasida tinchlikni ta’minlash;

- islom shariatida belgilab qoyilgan diniy va ahloqiy tamoyillarga tayangan holda;
- musulmon davlatlari o‘rtasida o‘zaro bir-birini tushunish, xamkorlikni kuchaytirish, tinchlikni saqlashga qaratilgan muhitni shakllantirishga xizmat etuvchi IKT ustavida belgilab qo'yilgan tamoyilar va normalami sodiq qolish;
- halqaro terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan IKT kodeksi qoidalaridan kelib chiqib faoliyat ko‘rsatish;
- musulmon davlatlari hayotiy manfaatlariga, barqarorligiga, havfsizligiga jiddiy havf soladigan terroristik jinoyatlarga qarshi kurashda a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;
- tashqi okkupasiyaga, kolonial siyosatga, irqiy kamsitishlarga qarshi bиргаликда kurashish, milliy ozodlik uchun, mustaqillik uchun kurashlarni o‘z taqdirini o‘zi belgilashni nazarda tutuvchi BMT rezolyusiyasidan kelib chiqqan qo‘llab-quvvatlash;
- terrorizmni har qanday ko‘rinishini, amalga oshirish vositalarini, u o‘z oldiga qanday maqsadlarni qo‘yganligidan qat’iy nazar inson huquqini paymol etuvchi bunday harakatni oqlab bo‘lmasligini e’tirof etish va boshqalar.

Islom Konferensiyasi tashkiloti ustav va konvensiyasida terroristik hatti harakatlar va unga qarshi kurashish meyorlari belgilab olingan. Unga asosan musulmon davlatlari o‘z hududida terroristik harakatlarning sodir etilishlariga yo‘l qo‘ymasliklari lozim. Terroristik hatti-harakatlardan ozor chekayotgan qo‘sni davlatlar bilan bunday harakatga qarshi kurashishda yordam berish, terrorizmga qarshi qaratilgan o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirib olishlari belgilab qo‘yildi. Narkotik moddalar savdosiga, qurol-yarog‘ savdosiga, bu moddalaming o‘z hududlaridan olib o‘tilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida chegara va bojxona xizmatlari sohasida tegishli chora-tadbirlarini bиргаликда ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek terroristik harakatlarga qarshi kurash chora-tadbirlari sifatida muayn davlat xududida

terroristik harakatni amalga oshirgan kimsani tegishli tomonning talabi bilan hibsga olish, mudhish hodisalami fosh etish bilan shug‘ullanayotgan yustitsiya vakillarini havfsizligini ta’minlash, ulaming samarali ishlashlariga imkoniyat yaratish, sodir etilgan va sodir etilishi ehtimoli bo‘lgan terroristik aktlar borasida muhim ma’lumotlar bilan ta’minlash va terroristic harakatdan zarar ko’rgan mintaqalarga moddiy yordam ko‘rsatish choralari amalga oshirilishiga kelishib olindi.

2. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari.

Markaziy Osiyoda barqarorlik tayanchi bo‘lgan O‘zbeistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yuksalishiga, xafsizligi va barqarorligiga ochiqdan-ochiq tahdid solayotgan din niqobi ostidagi ekstremistik kuchlar, fundamentalistlar, separatchilar va xalqaro terrorchilar, o‘ta hafli jinoyatchilar, ularning eng ashaddiyilari qo‘sni Afg‘aniston davlatida uya qurib, dunyoning turli burchaklaridagi ashaddiy terrorchi hamtavoqlarining moddiy va mafkuraviy madadiga tayangan holda yurtimiz sarhadlariini buzib o’tishga urinmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotni bosh Assambliyasining 48-sesiyasida so‘zlagan nutqida xalqaro jinoyatchilik, ayniqsa uning o‘ta xafli ko‘rinishi hisoblangan xalqaro terrorizm hamda narkobiznesga qarshi kurashda dunyodagi tinchliksevar davlatlar kuchlarini birlashtirish va muvafiqlashtirish tashabbusi bilan chiqqan edi. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmning oxirgi yillar davomida tobora xavfli tus olib, kuchayib borayotganligi jahonda jinoyatchilikning keskinlashuviga ta’sir etdi.

Hozirda terrorchilik miqqosi kengayishi xavfi yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanmoqda. Ayrim ma lumotlarga ko‘ra, terrorchilar yadroviy, kimyoviy va biologik qurollardan ham jinoiy maqsadlarni amalga oshirishda foydalanish bilan tahdid qilishlari mumkin. Shuningdek, ular insonning hayoti va sog‘lig‘iga bevosita ta’sir etmagan holda ijtimoiy tarmoqlaridan ham jinoiy qilmishlari yo‘lida foydalanib, harbiy harakatlami boshlash niyatida ekanligi ma’lum.

Kompyuter tizimi yordamida terrorchilik harakati sodir etish (kiberterrorizm) hisoblash markazlari, tibbiyat sohasi va harbiy bazalarni boshqarish, bank va boshqa moliyaviy tarmoqlami izdan chiqarishga mo‘ljallangan. Davlat muassasalari va boshqalarga zarba berish, iqtisodiy zarar etkazish, ba’zi bir katta aeroportlardagi aloqa tarmoqlarini ishdan chiqarish behisob kishilar o‘limiga sabab bo‘lishi mumkin.

Terrorchilaming hatto kosmosdagi texnikaviy asboblami qo‘lga kiritib, ulardan ham jinoiy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari borligi ehtimoldan xoli emas. Keyingi yillarda sodir qilinayotgan terrorchilik jinoyatlarining ko‘pchiligi zamirida siyosiy maqsad yotishi aniqlangan.

Terrorchilikka va terrorchilik harakatiariga asoslangan jinoiy faoliyatlarning gurkirashiga narkotik moddalar bilan noqonuniy oldi-sotdi qilish, juda kata miqdorda boylikka ega bo‘lish maqsadida shaxslarni garov sifatida tutqinlikda saqlash, qo‘poruvchilik, reket, shaxslaming sog‘lig‘i yoki mulkiga jiddiy zarar yetkazish kabi jinoyatlaming sodir etilayotgani ham madad bo‘lmoqda.

Terrorchilik kabi jinoyatlar XX asming mahsuli emas, bu jamiyat taraqqiyotiga yo‘ldosh jinoyatlardan biridir. XX asming birinchi yarmidan boshlab, bu yuridik atama, «terrorchilik» deb yuritila boshladи. XX asrning 30 yillarida Yevropadagi qator davlatlar va sobiq Ittifoq olimlari hamkorligida terror yoki terrorchilik aktini jinoyat huquqi fanining dolzarb muammosi tariqasida o‘rgana boshladilar. Shu davrdan boshlab, terrorchilik muammosi aks ettirilgan qator xalqaro hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Terrorchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik zarur ekanligi haqidagi birinchi xalqaro hujjat «Terrorizm to‘g‘risida ogohlantirish va uning oldini olish» deb nomlangan va u 1937-yilda Millatlar Ittifoqi tomonidan o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada muhokama qilingan. Ikkinci jahon urushi arafasida o‘tkazilganligi bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan mazkur konferensiyada terrorchilikning oldini olish va bartaraf etish choralarini ko‘rish masalasining muhokama qilinishiga o‘sha davrda Yevropa davlatlaridagi ayrim rahbarlar va siyosiy arboblarga nisbatan terrorchilik aktlari sodir etish hollarining ko‘payganligi turtki bo‘lgan.

Konvensiyada xalqaro terrorchilik akti tushunchasi, uning obyekti, jinoyat subyekti maslalari bayon etilgan.

Ushbu hujjatda ekstrazasiya, ya’ni bir davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan jinoyatchi jismoniy shaxsning ikkinchi bir davlatga berilishi haqida ham alohida qoida mavjud.

Bu muhim hujjat 24 davlat tomonidan imzolangan bo‘lsada, ratifikasiya qilinmagan, undan amaliyotda foydalanish chorasi ko‘rilmagan. Shunga qaramasdan bu konvensiya o‘tgan asr davomida terrorchilik bilan bog‘liq siyosiy-huquqiy muammolami hal etishda asos bo‘lgan bir qator ko‘p tomonlama xalqaro hujjatlarning qabul qilinishiga turtki bo‘ldi. BMT tomonidan davlatlarning terrorizmga qarshi o‘zaro hamkorlikda, bahamjihat, birqalikda qat’iy kurashini tashkil etishni ko‘zda tutgan qator konvensiyalar qabul qilingan.

Terrorchilikka qarshi kurash masalalarini o‘zida aks ettirgan, uch qit’a davlatlarining o‘zaro hamkorligini ifodalovchi quyidagi xalqaro hujjatlar amalda ekanini qayd etish joiz:

- 1) Amerika Davlatlari Tashkilotlarining «Xalqaro xususiyatiga ega bo‘lgan shaxsga qarshi jinoyat shaklidagi terrorchilikning oldini olish va jazolash to‘g‘risi»dagi (1971-y);
- 2) Yevropa Ittifoqi tomonidan tayyorlangan va qabul qilingan «Terrorchilik bilan kurashish to‘g‘risida»gi (1976y);
- 3) Janubiy Osiyo mintaqasi hamkorligi assotsiyasiga a’zo mamlakatlar tomonidan qabul qilingan «Terrorchilikning oldini olish bo‘yicha» 1978 yildagi Konvensiyalar.

XX asrning oxirgi o‘n yilligida ham terrorchilikka qarshi kurash jahon davlatlari oldidagi eng dolzarb muammo bo‘lib keldi.

Xalqaro terrorchiliknitng avj olayotgani, ayniqsa Afg'oniston va boshqa ba'zi musulmon davlatlari hududidagi «harbiy lagerlarda» terrorchi uyushmalar bemalol tayyorgarlik ko‘rganligi va ko‘rayotganligi mamlakat xavfsizligiga ham ochiqdan-ochiq tahdid solayotganligidan tashvishlangan O‘zbekiston davlatining

rahbari «Xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tuzish» zarurligi to‘g‘risidagi taklifini EXHT davlat va hukumatlariga bildirgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning fikriga ko‘ra, «Markazning asosiy vazifasi terrorizm ko‘rinishlari bilangina emas, eng avvalo, xalqaro terrorizmni mablag’ bilan ta’minlayotgan, qoilab-quvvatlayotgan, qurol-yarog‘ bilan ta’minlab, joylarga jo’natajotgan manbalarga qarshi kurash bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning so’zsiz bajarilishi bo‘yicha faoliyatlarini muvofiqlashtirishdan iborat bo‘lishi lozim».

Ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan xabarlardan birida aytilganidek, dunyo boyicha yiliga 320 dan 660 gacha terrorchilik aktlari sodir etiladi. Ba’zan minglab begunoh aholi terrorchilik harakati qurboni bo‘layotganligi g‘oyatda achinarlidir. Misol uchun, 1995-yilning 20-martida Tokio metrosida «Aum Senrikyo» din niqobidagi ekstremistik terrorchilik tashkiloti tomonidan sodir etilgan jinoyat oqibatida 5,5 ming kishiga shikast yetkazilgan. 2001-yil 11-sentabrda AQShda amalga oshirilgan terroristik akt XX asr mo‘jizasi ikki egizak binoning vayron bo‘lishi, sakkiz mingga yaqin kishining hayotiga zavol bo’ldi.

Terrorchilikka qarshi kurash yuzasidan AQSH va Rossida, Yevropa davlatlarida bir qator e’tiborga loyiq ishlar amalga oshirildi. Misol uchun, AQShda terrorchilikning oldini olish va bartaraf etishni o‘zida mujassamlashtirgan qirqa yaqin qonunlar qabul qilingan. Rossiya Federasiyasida «Terrorchilikka qarshi kurash to‘g‘risida»gi maxsus Qonun amalga joriy qilingan.

O‘zbekiston davlati ham terrorchilikka qarshi kurash bilan bog‘liq quyidagi xalqaro hujjalami ratifikasiya qildi, ular jumlasiga:

1. «Havo kemasi bortida sodir etiladigan jinoyatlar va boshqalar to‘g‘rsida»gi 1963-yilgi (Tokio) Konvensiya;
2. «Havo kemalarini g‘ayriqonuniy tarzda egallab olishga qarshi kurash to‘g‘risida» gi 1970-yilgi Gaaga Konvensiya ;
3. «Fuqaro aviasiyasi xavfsizligiga qarshi yo‘naltirilgan noqonuniy aktlar bilan kurashish to‘g‘risida»gi 1971-yilgi Montreal Konvensiyasi;

4. «Fuqaro aviasiyasi xavfsizligiga qarshi yo'naltirilgan noqonuniy aktlar bilan kurashish to'g'risida»gi Konvensiya ni to'ldiruvchi. «Aeroportlarda xalqaro fuqaro aviasiyasiga xizmat qilish, g'ayriqonuniy zulm aktlari bilan kurashishi to'g'risida» gi Protokol;
5. «Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslarga, shu jumladan, diplomatiya agentlariga qarshi jinoyatlaming oldini olish va bunday jinoyatlar uchun jazolash to'g'risida» gi Konvensiya;
6. «Odamlami garovga olishga qarshi kurashish to'g'risida»gi 1979-yilgi Xalqaro Konvensiya;
7. «Yadroviy materialni jisman himoya qilish to'g'risida» gi 1997-yilgi Konvensiya;
8. «Plastik portlovchi moddalarni topa olish maqsadida markirovka qilish to'g'risida»gi Konvensiya;
9. «Bombali terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Xalqaro Konvensiya.
10. «Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi xalqaro Konvensiyalar kiradi.

3. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida”gi yangi konvensiya va uning ahamiyati.

BMT Bosh Assambluyasi tomonidan «Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida» gi yangi Konvensiya (1999) qabul qilingan. Bu terrorizm tusidagi jinoyatlarni davlatlaming ichki qonunchiligidagi tasniflash (klassifikasiya) imkonini yaratdi.

Ushbu hujyatda ilova tariqasida;

1. «Bombali terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Xalqaro Konvensiya.
2. «Dengiz kemalari xavfsizligiga» qaratilgan noqonuniy harakatlarga qarshi kurash to'g'risida» gi Konvensiya.
3. «Kontinental kenglikda joylashgan doimiy platformaga qaratilgan harakatlarga qarshi kurash to'g'risida»gi Protokol.
4. «Yadroviy materialni jisman himoya qilish to'g'risida» gi Konvensiya.

5. «Odamlami garovga olishga qarshi kurash to‘g‘risida» gi Xalqaro Konvensiya.

6. «Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shahslarga, shu jumladan, diplomatiya agentlariga qarshi jinoyatlaming oldini olish va bunday jinoyatlar uchun jazolash to‘g‘risida»gi Konvensiya.

7. «Fuqaro aviasiyasi havfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy harakatlarga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Konvensiya.

8. «Fuqaro aviasiyasi havfsizligiga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Konvensiyani to‘ldiruvchi «Aeroportlarda xalqaro fuqaro aviasiyasiga xizmat qilish, g‘ayriqonuniy zulm aktlari bilan kurashish to‘g‘risida»gi Protokol.

9. «Havo kemalarini g‘ayriqonuniy tarzda egallab olishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi jami 9 ta Konvensiya qayd qilingan.

Ammo bu xalqaro hujjatlarning hammasiga O‘zbekiston Respublikasi to‘la qo‘silmagan. Kelgusida, O‘zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyada ilova qilingan barcha xalqaro hujjatlarga qo’shilish chorasini ko‘rishi zarur.

Jahonda, shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida terrorchilik bilan bog‘liq «olovli nuqta»lar mavjudligini hisobga oigan holda, O‘zbekiston Respublikasida ham qator davlat idoralari, ayniqsa Mudofaa, Favquloda vaziyatlar, Ichki ishlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, chegara, bojxona, prokuratura idoralarinirig terrorchilikka qarshi kurashdagi faoliyatini davr talabi darajasiga ko’tarib, ularning bu boradagi imkoniyatlaridan yanada samaraliroq foydalanish, bu turdagи jinoyatlaming O‘zbekiston davlati hududida ildiz otishining oldini olish, mintqa xavfsizligini ta’minalash, terrorchilikni keltirib chiqaruvchi sabablar va shart-sharoitlarni o‘rganishni ta’minlovchi «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi, terrorizmning har qanday ko‘rinishiga qarshi kurashda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

4. Terrorchilikka qarshi kurashda SHHT ning Toshkent sammitining ahamiyati.

Yana bir muhim xalqaro hujjat - «Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida» gi Shanxay Konvenysiyasi bo‘lib, mazkur hujjat

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq 2001 yil 30 avgustdagи oltinchi sessiyasida ratifikasiya qilindi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining terrorchilikni bartaraf qilish bilan bog‘liq faoliyati quyidagilarga keng qaratilgan:

Birinchidan, terrorchilikning har qanday ko‘rinishlarga zarba berish;

Ikkinchidan, terrorchilikni qo‘llab-quwatlayotgan davlatlarga qarshi jahon hamjamiyati bilan hamkorlikda kurashni davom ettirish;

Uchinchidan, Xalqaro terrorchilarni jazolash mexanizmidan to‘liq foydalanish va terrorchilikka qarshi kurashda boshqa davlatlarga ko‘maklashish kabi prinsiplar

asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Zero, bu borada aniq chora-tadbirlar belgilab, javobgarlikning muqarrarligi ta’minlanmasa, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali natijalarga erishib bo‘lmaydi.

Tayanch so‘z va iboralar

. Islom konferensiyasi tashkiloti, Vijdon erkinligi, e’tiqod erkinligi, milliy manfaatlar, terroristik tashkilotlar, globallashuv, jaholatga qarshi-ma’rifat.

Takrorlash uchun savollar

1. Islom konferensiyasi tashkiloti tuzilishi, uning ustavi va faoliyati haqida nimalami bilasiz?

2. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?

3. Ekstremizm va terrqrizm bilan bog‘liq boigan qonunbazarliklaming asosiy ko‘rinchlari qanday?

4. O‘zbekiston Respublikasining terrorchilikni bartaraf qilish bilan bogiiq faoliyati nimalarga qaratilgan?

**Mavzu. Xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi ma'rifat bilan
kurashishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish borasidagi vazifalar
(Sh.M.Mirziyoyevning BMT 72 sessiyasidagi nutqi asosida)**

Reja

1. Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so’zlagan nutqidagi ustuvor vazifalar.
2. Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda oila-mahalla-ta’lim-nodavlat tashkilotlari faoliyatini uyg’unlashtirish masalalari.
3. Xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda jaholatga qarshi kurashishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarish masalalari.
4. Shavkat Mirziyoyevning BMT 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda hamkorlik masalalari.

Tayanch tushunchalar

Xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash davr taqozosi. Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so’zlagan nutqidagi ustuvor vazifalar. Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda oila-mahalla-ta’lim-nodavlat tashkilotlari faoliyatini uyg’unlashtirish masalalari. Xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda jaholatga qarshi kurashishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarish masalalari. Shavkat Mirziyoyevning BMT 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda hamkorlik masalalari.

- 1. Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so’zlagan nutqidagi ustuvor vazifalar.**

2017-yil 15-iyun kuni Toshkent shahrida "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusida anjuman bo‘lib o‘tdi. Tadbirda O‘zbekiston musulmonlari idorasi rahbarlari, din arboblari, "Nuroni" va Mahalla institutini qo’llab-quvvatlovchi jamg‘armalari, Xotin-qizlar, yoshlar tashkilotlari faollari, hokimliklar, huquq-tartibot idoralari vakillari, ilm-fan va

madaniyat namoyandalari, islomiy ta'lif muassasalari mutasaddilari va talabalari, jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

"Kun tartibiga qo'yilgan masala, ya'ni, ijtimoiy-ma'naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q.

Nega deganda, aynan shu masalalar bizning bugungi va ertangi kunimizni, farzandlarimiz, nabiralarimiz taqdiri va kelajagini, bir so'z bilan aytganda, hayot-mamotimizni hal qilishi hech kimga sir emas.

Har bir ongli insonni chuqur o'ylantirib, tashvish va xavotirga soladigan bu masalalar haqida so'z yuritishdan avval hozirgi vaqtida shu yo'nalishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarga, dastur va loyihalarga qisqacha to'xtalib o'tish, o'ylaymanki, maqsadga muvofiq bo'ladi", - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Adashgan yoshlarni tarbiyalash, jazoni o'tash joylariga ham borib, ular bilan gaplashish, chin dildan tavba qilib, ota-onasi, oilasi bag'riga, to'g'ri yo'lga qaytishni niyat qilgan odamlarga amaliy yordam berish maqsadida jamoatchilik va boshqa tegishli tashkilotlar quyidagi eng muhim vazifalarni amalga oshirishi kerakligi belgilandi:

Birinchidan, joylarda maxsus hisobga olingan fuqarolarning turmush sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, muammolarini o'rghanish, ushbu toifa shaxslar nega radikallahib ketganining sabablarini har tomonlama chuqur tahlil etish.

Ikkinchidan, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha mahalla maslahatchilari, profilaktika inspektorlari, imom-xatiblar va huqujni muhofaza qilish organlarining tegishli xodimlari uchun malaka oshirish o'quvlarini tashkil etish.

Uchinchidan, hokimlarning yoshlari bilan ishslash hamda jamoatchilik va diniy tashkilotlar, shuningdek, xotin-qizlar bo'yicha o'rribbosarlari avvalo o'zlari tashabbus

ko‘rsatib, turli soxta va’dalar, havoyi gaplar ortidan ergashgan fuqarolarning xonadonlariga kirib borishlari kerak.

To‘rtinchidan, har bir mahallada mahalla raisi, maslahatchilar, uchastka inspektori va imom-xatibning mas’uliyati va javobgarligini oshirish kerak.

Beshinchidan, bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, dunyoqarashi bilan bog‘liq.

Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin.

Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. Lekin tarbiya degani faqat maktab tarbiyasidan iborat emas. Hozir hammamiz bor aybni maktabga ag‘darishga o‘rganib qolganmiz.

Oltinchidan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamoatchilik nazoratini tizimli yo‘lga qo‘yish eng maqbul yo‘l-ekanligi Prezidentimiz tomonidan ta’kidlangan.

2. Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda oila-mahalla-ta’lim-nodavlat tashkilotlari faoliyatini uyg’unlashtirish masalalari.

Bugungi kunda diniy ekstremistik oqim a’zolarining farzandlarini jamoat ishlariga, dunyoviy turmush tarziga, xususan, fan va kasb-hunar to‘garaklari, san’at festivallari, sport musobaqalariga jalb qilishga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti. Buni albatta qoniqarli deb bo‘lmaydi. Nega deganda, bir-ikki marta nomiga tadbir o‘tkazish bilan ish bitmaydi. Bu yo‘nalishda har kuni, har soatda, doimiy va tizimli ravishda ish olib borish kerak. Buni ma’naviy hayot, g‘oyaviy-mafkuraviy ish deb qo‘yibdi. Bu bizga g‘alla yoki chigit ekish emas, urug‘ni tuproqqa tashladik, bo‘ldi, endi kutamiz, deb qarab o‘tirsak.

Mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi.

Demak, unga doimo ma’naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo‘ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo‘l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti!

Buning uchun o‘zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma’naviyati, g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas’ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo‘ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta’sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo‘ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo‘lishlari lozim-deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi faoliyati samaradorligini oshirish, uning tasarrufidagi tashkilotlar va imom-xatiblarga qulayliklar yaratish uchun quyidagi masalalarni ko‘rib chiqish zarurligi Prezidentimiz tomonidan ta’kidlandi.

Birinchidan, O‘zbekiston musulmonlari idorasi va uning tizimidagi masjid va ta’lim muassasalarining notijorat tashkilot sifatida faoliyat yuritishini inobatga olib, ular tomonidan to‘lanadigan yagona ijtimoiy to‘loving miqdorini qayta ko‘rib chiqish zarur.

Ikkinchidan, O‘zbekiston musulmonlari idorasining Samarqand viloyatidagi Imom Buxoriy majmuasi qoshida faoliyat ko‘rsatayotgan imom-xatiblar malakasini oshirish o‘quv markazining faoliyatini kuchaytirish, uning ilmiy salohiyatini, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishimiz va amalga oshirishimiz zarur.

Uchinchidan, mamlakatimizda ma’rifiy yo‘nalishdagi nashrlarga berilgan imtiyozlarni O‘zbekiston musulmonlari idorasining “Hidoyat” jurnali va “Islom nuri” gazetasi hamda diniy-ma’rifiy nashrlar uchun ham joriy etib, ularga ham soliq va majburiy ijtimoiy to‘lovlardan bo‘yicha belgilangan imtiyozlar berish adolatdan bo‘ladi, deb o‘ylayman.

To‘rtinchidan, “O‘zbekiston” telekanali orqali beriladigan “Hidoyat sari” ma’rifiy dasturi va “Ziyo” studiyasi ko‘rsatuvalarini, o‘ylaymanki, yurtimizda ko‘pchilik katta qiziqish bilan tomosha qiladi. Ana shu ko‘rsatuvalar ijodkorlarining samarali mehnatini inobatga olib, ularni bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlaymiz.

3. Xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda jaholatga qarshi kurashishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish masalalari.

“Ekstremist” so’zi «aql bovar qilmas darajada», «xaddan oshish» ma’nolarini bildiradi. Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me’yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik ekstremizmning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Hozirgi davrda, eng avvalo axborot chegaralarining barham topishida o’zligini namoyon qilayotgan globallashuv sharoitida va bir paytlar xalqaro munosabatlar mazmunini belgilagan ikki qarama-qarshi kuch - sotsializm va kapitalizm o’rtasidagi o’zaro kurashning barham topishi natijasida ekstremizm va undan o’sib chiqqan terrorizm mamlakatlar, mintaqalar va umuman dunyo xavfsizligiga asosiy tahdid sifatida maydonga chiqdi.

Bugun ekstremizm anarxizm va fashizmning arxaik shakllari bilan qorishmasi hisoblangan va islom g’oyalardan ustalik bilan foydalanadigan, aslida esa islom bilan hech qanday aloqasi bo’lmagan terrorizm tahdidi kuchaymoqda.

Ekstremistik tuzilmalarning asosiy maqsadi aslida jamiyatni qo’rquv va vahimada tutib turish, shu yul bilan omma ongida noilojlik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg’ularini shakllantirishga qaratilgan. Bu esa, o’z navbatida, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida barqarorlikka erishishni va jamiyat taraqqiyotini jiddiy qiyinlashtiradi. Hozirgi davrda ko’plab ekstremistik uyushma va aqidaparastlar turli dinlar, shu jumladan, xristianlik, yahudiylilik, islom dinlari ta’limotidan foydalanmoqdalar.

Terrorizm - jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholining keng qatlamlarida vahima va qo’rquv uyg’otishga qaratilgan siyosiy kurashning o’ziga xos usulidir. U yashirin ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallah maqsadida qo’llanadi.

Shuni ham tan olish kerak, ommaviy axborot vositalarining rivoji va axborot omili ta’sirining kuchayishi bugungi kunda ekstremizm va terrorizmning hech narsa bilan o’lchab bo’lmaydigan darajada ko’zga tashlanadigan ijtimoiy hodisaga aylanishiga olib keldi.

Ekstremizm va terrorizm ommaviy axborot vositalaridan foydalanmas ekan, ko’zlangan “samara”ga erisha olmaydi. Ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog’liq bo’lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir. Shunday ekan, terrorizm global miqyosga chiqqan hozirgi sharoitda, davlat unga qarshi kurashda ichki va tashqi omillarning ta’sirini hisobga olgan holda, mutanosib strategiyasini ishlab chiqishi kerak. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O’zbekistan Respublikasining o’z taraqqiyotining o’ziga xos jihatlarini, haligacha terrorizm, narkobiznes, noqonuniy qurol-yarog’ savdosi kabi qator tahdidlar mavjud bo’lgan Markaziy Osiyodagi kuchlar nisbatini hisobga olib, ishlab chiqqan ichki va tashqi siyosati alohida ahamiyatga molikdir.

Mutaxassislar ekstremizmning paydo bo’lishi va rivojlanishiga sabab bo’lgan omillar ichida mafkuraviy bo’shlinqning ta’siri va qadriyatlar mo’ljallaridagi beqarorlikda namoyon bo’lgan nomutanosiblikni alohida ajratib ko’rsatmoqda. Mafkuraviy bo’shliq ko’pincha kishilarda jamiyatdagi mavjud holatni, ijtimoiy muhitni noto’g’ri idrok etishga, uning irodasini boshqa kishiga buysundirish va dunyoqarashida agressivlikni shakllantirishga xizmat qiladigan nosog’lom g’oyalar bilan to’ldirilishiga zamin yaratadi. Shuning uchun ham O’zbekiston ekstremizmga qarshi kurashda, uning paydo bo’lishi va rivojlanishini bartaraf etish ishlarida g’oyaviy tarbiya, xususan, mamlakat yoshlarida yuksak ma’naviyatni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor bermoqda. Bunday yondashuvda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, milliy o’zlikni tiklash va mustaqillikni mazmunan boyitishga asoslangan milliy g’oya, ma’naviyat va ma’rifat, to’g’ri shakllantirilgan ong ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashning eng muhim tizimi sifatida yuzaga chiqadi.

“Ma’rifat” so’zi arabcha “Orif”, ko’pligi “maorif” so’zidan olingan bo’lib, lug’atda “bilish”, “tanish” kabi ma’nolarni anglatadi. Tasavvuf ta’limotida esa, “ma’rifat” tushunchasi, asosan ikki qismga bo’linadi. Ular ayni paytda birlashib, “ma’rifat” tushunchasini hosil qiladi: 1.“Ma’rifatun-nafs” 2.“Ma’rifatulloh-Qachonki,

“Ma’rifatun-nafs” hosil bo’lsa, “ma’rifatulloh” hosil bo’ladi. “Ma’rifatulloh” ni anglagan zotlar esa olloohni tanigan hisoblanadilar.

Ma’rifat – kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar, haqidagi tushunchalar majmuasini ham bildiradi. Ma’rifat ilmu urfon ma’nosida ham ishlatiladi. Ma’rifat tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog’liq. Ma’rifat kishilarni jaholatdan qutqaradi.

Tariximizda “Ma’rifat” so’zinining ziddi “jaholat”, “ma’rifatlilik” so’zining ziddi esa “johil”dir. Johil yoki jahl so’zining ma’nosи – ko’rlik, ojizlikdir.

4. Shavkat Mirziyoyevning BMT 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda hamkorlik masalalari.

“Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” to‘g’risidagi rezolyutsiya jahonda ekstremizm, terrorizm muammosi avj olib, turli din va e’tiqod vakillariga nisbatan toqatsiz, murosasiz munosabatlar kuzatilayotgan bir vaqtda global tahdidlarga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalasini ilgari surgani bilan, ayniqla, ahamiyatlidir.

Tahlillar natijalari so‘nggi 10 yilda terrorizm oqibatida jahon iqtisodiyotiga 583 trillion AQSH dollari miqdorida zarar yetkazilganini ko‘rsatmoqda. Keyingi 15 yilda terrorchilik harakatlari natijasida 91 ming begunoh inson halok bo‘lgan. Ularning aksariyati bolalar, ayollar va qariyalardir.

Ming afsuski, ayrim manfaatdor kuchlar tomonidan terror tushunchasini tinchlik va insonparvarlik dini bo‘lgan islom bilan yonma-yon qo‘yish, zo‘ravonlikni faqat islomga bog’lash orqali 1,6 milliardlik dunyo musulmonlariga nisbatan salbiy kayfiyatni shakllantirish, islomofobiyan keng yoyishga harakatlar kuzatilmoqda. Bu esa jahonning turli mintaqalarida etno-konfessional ziddiyatlar vujudga kelishi, yangidan-yangi nizo o‘choqlari paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Terrorizmni nafaqat islom, balki xristianlik, yahudiylilik kabi boshqa dinlar bilan bog’lash ham aslo mumkin emas. Binobarin, barcha ilohiy ta’limotlar asosida insonni ulug’lash, unga munosib izzat-hurmat ko‘rsatish g‘oyalari yotadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan tarixiy nutqida ushbu dolzarb masalaga alohida e’tibor qaratib: “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi”, – deya ta’kidlagan edi.

Bunday adolatli yondashuv xalqaro doiralarda keng muhokamalarga sabab bo‘ldi. BMT Xavfsizlik Kengashining 2017 yil 21 dekabrdagi 2396-sonli rezolyutsiyasida: “Terrorizm, zo‘ravon ekstremizm hech bir din, millat va sivilizatsiya bilan aloqador emas va bog‘liq holda talqin qilinmasligi kerak”, – deb qayd etildi.

O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasining tinchlik-osoyishtalikni saqlash, diniy bag‘rikenglikni ta’minlashdagi ahamiyatini quyidagi jihatlarda ko‘rish mumkin:

Birinchidan, rezolyutsiya O‘zbekiston Prezidentining diniy-ma’rifiy sohaga oid tashabbuslari nafaqat xalqimiz, balki xalqaro jamoatchilik tomonidan ham faol qo‘llab-quvvatlanayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi – bularning barchasi xalqaro darajadagi yirik loyihalardir. Ushbu tashabbuslarning ahamiyati shundaki, ilm-ma’rifat, madaniyat zамини bo‘lgan O‘zbekistondan ma’rifiy islom g‘oyalari tarqalishi, muqaddas dinimizning asl insonparvarlik ta’limotlarini yoyish bo‘yicha Movarounnahrda shakllangan tarixiy maktablar an’anasining davom etishi “Jaholatga qarshi – ma’rifat” bilan kurashishning eng samarali yechimi bo‘ladi.

Ikkinchidan, “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi dunyo jamoatchiligini bezovta qilayotgan terrorizm, ekstremizm, zo‘ravonlik, murosasizlik kabi bugungi kunning o‘tkir muammolariga yechim sifatida ilm-ma’rifat, o‘zgalarga adolatli va bag‘rikeng yondashuv hamda tinchlikparvar siyosatni targ‘ib qiladi.

Jahonning yetakchi ekspert va ilmiy doira vakillari ta'kidlayotganidek, xavfsizlikka tahdidlarni kuch ishlatish yo'li bilangina hal etish usuli bugungi kunda kutilgan natijani bermayapti.

Dunyo bo'yab ekstremistik tashkilotlarning 38 yillik faoliyati tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, radikal guruhlar faoliyatining 7 foizi qurolli aralashuv natijasida to'xtatilgan bo'lsa, ularning 40 foizi tinch yo'l bilan – siyosiy muzokaralar o'tkazish vositasida barham topgan.

O'zbekistonning Afg'oniston muammosini tinch yo'l bilan hal etish, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash borasidagi taklif va tashabbuslari ham mazkur g'oyani o'zida ifoda etadi.

Uchinchidan, ushbu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlash, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat.

AQSHning Iqtisodiyot va tinchlik instituti xulosalariga ko'ra, zo'ravon terrorizmning oldini olish, tinchlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri bu – ta'limga yo'naltirilgan investitsiya hisoblanadi. Ayniqsa, musulmon dunyosida fan-ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratish, sohaga zamonaviy, ilg'or tajribalarni joriy etish, yoshlarni bugungi hayot talablariga mos tarzda o'qitish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

To'rtinchidan, ushbu rezolyutsiya jamiyatda barqaror ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim sharti sifatida dini va e'tiqodiy qarashlari turlicha bo'lgan insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, bir-birini tushunish qadriyatlarini qo'llab-quvvatlash, ularning kmsitilishiga yo'l qo'ymaslikni ilgari surildi.

Diniy bag'rikenglik O'zbekistonning ko'p yillik tarixiy tajribasida turli e'tiqod vakillarining tinch-totuv hayoti davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lishini isbotlagan. Ko'p millatli xalqimizning yurt tinchligi, vatan taraqqiyoti yo'lidagi umumiy sa'y-harakatlari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning keng ko'lamliligi va jadalligini ta'minlamoqda.

Xulosa qilib aytganda, ushbu rezolyutsiya O'zbekistonning dunyoda tinchlik o'rnatish, nizo va ziddiyatlarning oldini olish, murosasizlikning har qanday

ko‘rinishiga chek qo‘yish borasidagi dolzarb tashabbuslari xalqaro maydonda munosib e’tirof etilayotganidan dalolat beradi.

Ma’lumki, BMT Bosh Assambleyasining 2018-yil 12-dekabrdagi yalpi sessiyasida «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Loyihasi O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat BMTga a’zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi.

Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so’nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo’li bilan kurashish usuli o’zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman-dedi Prezidentimiz.

Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir.

Ekstremistik faoliyat va zo’ravonlik bilan bog’liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlар tomonidan sodir etilmoqda.

Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo’lib kamolga etishi bilan bog’liq.

Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o’z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo’ravonlik g’oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir.

“Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy

hujjat — BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konventsiyasini ishlab chiqishni taklif etadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Vijdon erkinligi, e’tiqod erkinligi, milliy manfaatlar, terroristik tashkilotlar, globallashuv, jaholatga qarshi-ma’rifat.

Takrorlash uchun savollar

1. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi" mavzusida anjumani oldidagi vazifalar nimalardan iborat?
2. Toshkent Islom madaniyati markazini barpo etishdan ko‘zlangan maqsad nima edi?
3. Ma’naviy-ma’rifiy, targ‘ibot ishlari oldiga qo‘yilayotgan ustuvor vazifalar?
4. “Jaholat qarshi ma’rifat” tamoyilining mohiyati nimada?
5. Yoshlami ma’naviy tahdidlardan himoya qilishda oila-mahalla-ta’iim-nodavlat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalarini keltiring?

V. Tavsiya etilayotgan mustaqil ta’limning mavzulari:

1. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari fanining maqsad va vazifalari.
2. Ekstremistik, terroristik markazlarning maqsadi va intilishi.
3. O‘zbekiston Respublikasida diniy qadriyatlarga e’tibor.
4. Dinni niqob qilib olgan ekstremistik guruhlarning faoliyati.
5. Pokiston hududidagi faoliyat yuritayotgan xavfli terrorchi tashkilotlar.
6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida din va diniy tashkilotlar tug‘risida.
7. Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida diniy bag‘rikenglikni asrash masalalarining yoritilishi.
8. “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” kursini urganishning ahamiyati.
9. XX asr oxiriga kelganda dunyoning geografik - siyosiy xaritasidagi o‘zgarishlar.
10. “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” kursining predmeti, obyekti va vazifalari.

11. Ekstremizm va terrorizmning mohiyati va uning jamiyat barqarorligiga tahdidi.
12. Terrorchilik harakatlarining vujudga kelish sabablari va tarixi.
13. Terrorizm va Ekstremizmning asosiy xususiyatlari.
14. Diniy aqidaparastlikning kelib chikishi va dunyoviy davlatning dinga munosabati.
15. Terrorizm, fundamentalizm, aqidaparastlik tushunchalari.
16. Diniy aqidaparastlik, uning kelib chiqishi va jamiyat taraqqiyotidagi salbiy ta'siri.
17. Dunyoviy davlatda din va unga munosabat.
18. Vijdon va e'tiqod erkinligi. Vijdon va e'tiqod erkinligining huquqiy asoslari.
19. O'zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatning asosiy tamoyillari.
20. Yoshlarni diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar.
21. Vaxxobiylirkning yuzaga kelishi va uning asosiy g'oyalari. Arabiston yarim orolidagi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy vaziyat.
22. Vaxxobiylirk kabi xavfli harakatning kelib chiqishi va mohiyati.
23. XX asrning ikkinchi yarmida terrorchi tashkilotlarning kuchayishi.
24. G'arbiy Yevropadagi terrorchi tashkilotlar faoliyati.
25. AQSh va Lotin Amerikasidagi terrorchi tashkilotlarning harakat uslublari.
26. Osiyo va Afrika davlatlaridagi terrorchi tashkilotlar faoliyati va ularning insoniyatga yetkazayotgan zararli oqibatlari.
27. Yaqin Sharqda terrorchi guruhlarning paydo bo'lish sabablari va kuchayishi.
28. Yaqin Sharqning tabiiy - geografik, energetika, transport- kommunikatsion imkoniyatlari.
29. Rivojlangan mamlakatlarning Yaqin Sharqda strategik manfaatlari.
30. ISHID muammoasi.
31. Xalqaro terrorizmning moliyaviy va iqtisodiy manbalari.
32. Terror globallashuvini ta'minlovchi omillar.

33. Jahondagi yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari.
34. Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlar. Markaziy Osiyoning tabiiy- geografik, transport-kommunikatsion imkoniyatlari.
35. Yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari.
36. Terrorchilikka qarshi kurashda SHHT ning Toshkent sammitining ahamiyati.
37. Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlashda Sh.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqidagi ustuvor g'oyalar.
38. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy - huquqiy asoslari.
39. IHT tuzilishi, mohiyati, ustavi va uning islom tartibotini shakllantirishdagi faoliyati.
40. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari.
41. BMT Bosh Assambleysi tomonidan “Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash tugrisida” gi yangi Konvensiya va ularning ahamiyati.

“Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari”

fanidan oraliq nazorat savollari

1-variant

1. Islomdagi bo’linishlar turi nechta?
A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta
2. “Kax” ekstremistik guruhi qayerda joylashgan?
A) Liviya hududida B) Falastinda C) Livan hududida D) Isroilda
3. Qachon IRA o‘z faoliyatini to‘xtatganligini e‘lon qildi?
A) 1992-yilda B) 1997-yilda C) 1999-yilda D) 2018-yilda
4. Vahhobiylit qachon va qayerda vujudga kelgan?
A) XVII asrda Saudiya Arabistonida B) XVIII asr o‘rtalarida Markaziy Arabistonda C) XVI asrda Suriyada D) XIX asrda Iroqda
5. Lotinchadan tarjima qilinganda “asos”, “poydevor” ma’nolarini beruvchi so‘z qaysi?
A) ekstremizm B) fundamentalizm C) terrorizm D) kiberterrorizm

6. Tolibon harakati qayerda vujudga kelgan?
- A) Qobulda B) Vaziristonda C) Badaxshonda D) Qandahorda
7. 1990-yilda “Islom uyg‘onish partiyasi”ga quyidagi qaysi shaharda asos solingan?
- A) Astraxanda B) Qo‘qonda C) Qozonda D) Namanganda
8. Tafakkur shakliga kirmaydigan javobni aniqlang.
- A) tushuncha B) hukm C) analiz D) xulosa
9. “Akromiylar” harakati asoschisi qayerda tug‘ilgan?
- A) Farg‘onada B) Andijonda C) Namanganda D) Toshkentda
10. “Boy” va “Direktor” laqablari bilan mashhur bo‘lgan diniy ekstremistni aniqlang.
- A) Juma Xojiyev B) Tohir Yo‘ldosh C) Akram Yo‘ldoshev
D) Abduvali Mirzayev
11. Akrom Yo‘ldoshevning 12 darsga mo‘ljallangan dasturi qanday nomlanadi?
- A) “Tavhid” B) “Risolayi Nur”
C) “Jannat oshiqlari” D) “Iymonga yo‘l”
12. “Bay’at” so‘zining lug‘aviy ma’nosini aniqlang.
- A) “g‘ayrat qilish”, “bor kuchini ishga solish” B) “o‘rinbosar”
C) “kelishish”, “bitim tuzish” D) “guvoh”
13. “Nurchilar” diniy siyosiy oqimi g‘oyalari qachondan boshlab O‘zbekistoniga kirib kela boshlagan?
- A) 1993-yil B) 1992-yil C) 1991-yil D) 1990-yil
14. 2015-yilning 20-yanvarida quyidagi qaysi shaharda 13 o‘smir Osiyo kubogida ishtirok etayotgan Iroq-Iordaniya fútbol o‘yinini tomosha qilishgani uchun otib o‘ldirildi.?
- A) Mosulda B) Bag‘dodda C) Kirkukda D) Tikritda
15. 2015-yilgacha xalifa unvonini ishlatgan sultonlikni aniqlang.
- A) Bornu xalifaligi B) Sokoto xalifaligi C) Yogyakarta xalifaligi
D) Tukuler imperiyasi
16. Olimlar ilk terroristik harakatlar kimning o’limi bilan bog’liq deb hisoblaydilar?
- A) Kambiz II B) Filipp II C) Yuliy Sezar D) Doro I
17. Ekstremizm so’zi qaysi tildan olingan?

- A) lotincha B) yunoncha C) inglizch D) fransuzcha
18. Kimning fikricha “Terrorizm siyosiy maqsadda amalga oshiriladigan, asoslangan zo‘ravonlikdir” degan?
- A) B.Kroze B) T.Kaulmon C) Sh.Baseyev D) G.Deniker
19. Quyidagi qaysi qatorda ekstremizmning namoyon bo‘lishiga ko‘ra turi keltirilmagan?
- A) mintaqaviy B) hududiy C) xalqaro D) mahalliy
20. Qachondan boshlab Xalqaro jamiyat terrorizm hodisasiga e’tibor bera boshlashdi.
- A) 1981-yildan B) 2001-yildan C) 1963-yildan D) 2005-yildan
21. Qachon “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to’g’risida Shanxay konvensiyasi” qachon imzolangan?
- A) 2001-yil 15-iyun B) 2002-yil 5-sentabr C) 2005-yil 1-may D) 2000-yil 28-mart
22. Kim terrorizm tarixini shartli ravishda 4 guruhga bo’lib o’rganishni taklif qiladi?
- A) O.Abdullajonov B) Sh.G’oyibnazarov C) Sh.Jo’rayev D) N.Jo’rayev
23. Quyidagi qaysi shahar kamida ikki marta vayron qilingan, 23 marta qamal qilingan, 52 marta hujumga uchragan va 44 marta bosib olingan yoki qayta bosib olingan?
- A) Bag‘dod B) Damashq C) Quddus D) Istanbul
24. Lotinchadan “yuborish”, “vazifa topshirish” degan ma‘nolarni anglatuvchi so‘z?
- A) prozelitizm B) proteksionizm C) missionerlik D) ekstremizm
25. Sunniylikda nechta fiqhiy mazhablar bor?
- A) 3 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 5 ta
26. “Ixvon al-muslimun” terrorchilik tashkiloti rahbari bo’lgan shaxsni aniqlang.
- A) Hasan al-Banno B) Ibn Taymiya C) Abu Saloh D) Saad Zag‘lul
27. O’zbekistonda “Terrorizmga qarshi kurash to’g’risidagi” qonun qabul qilinganidan necha yil o’tib “Ekstremizmga qarshi kurash to’g’risida”gi qonun qabul qilindi?
- A) 15 yil B) 16-yil C) 17-yil D) 18 yil
28. Prezident Sh.Mirziyoyev taklif etgan “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” rezolyutsiyasi qachon qabul qilindi?

A) 2018-yil 20-sentyabrdan B) 2019-yil 18-fevralda

C) 2018-yil 12-dekabrdan D) 2019-yil 5-oktyabrdan

29. 2015-yildan beri har yili Markaziy Osiyoning beshta davlati tashqi ishlar vazirlari o'rtasida AQSh Davlat kotibi bilan hamkorlikda o'tkaziladigan diplomatik sammit nima deb nomlanadi?

A) C5+1 B) 6+2 C) CA5+1 D) 6+3

30. 2019-yildan buyon O'zbekiston Suriya, Iroq va Afg'onistondagi ayollar va bolalarni qaytarish bo'yicha nechta «Mehr» operatsiyasini o'tkazdi?

A) 4 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 7 ta

**“Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari”
fanidan oraliq nazorat savollari**

2-variant

1. Jan-Pol Marat kim tomonidan pichoqlab o'ldirilgan?

A) Sharlotta de Korde B) Maksimilyen Robespierre

C) Jan Mari Rolan D) Verma Barfield

2. Irlandiya Respublikasi Birodarligi (IRB) qachon Dublinda qo'zg'alon ko'tardi?

A) 1916-yilda B) 1910-yilda C) 1920-yilda D) 1900-yilda

3. 1954-1955-yillarda qaysi tashkilotning faoliyati kuchayib, tegishli davlat idoralariga 600 martadan ortiq hujum uyshtirgan?

A) Aksilimperialistik yacheykalar B) Basklar mamlakati va erkinligi

C) Yer suv ligasi D) Irlandiya Respublikasi armiyasi

4. Vahhobiylilik islom dinining qaysi yo'nalishi asosida vujudga kelgan?

A) horijiylilik B) shialik C) sunniylilik D) alaviylik

5. Namangan viloyatida qanday nomdagi ekstremistik guruhlar faoliyat ko'rsata boshlagan?

- A) "Hizbulloh", "Islom uyg'onish partiyasi" B) "Adolat", "Islom lashkarlari"
C) "Tavba", "Musulmon birodarlar" D) "Akromiyalar", "Hizbut-tahrir"
6. 1992-yil 15-fevralda adliya vaziri "Islom markazi" tashkilotini qaysi viloyatda tuzishga ruxsat berdi?
- A) Namanganda B) Samarqandda C) Andijonda D) Farg'onada
7. "Ko'p qutbli dunyo nazariyasi" monografiyasining muallifini aniqlang.
- A) Semyuel Filips Xantington B) Aleksandr Gelyevich Dugin
C) Robert Gilpin D) Stiven Koen
8. "O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatayotgan barcha diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligi kafolatlanadi. Davlat konfessiyalarning tinch-totuv yashashiga kafil bo'ladi" - Konstitutsiyamizning nechanchi moddasi 2-3-qismlar bilan to'ldirilishi loyihada keltirilgan?
- A) 18-modda B) 31-modda C) 57-modda D) 61-modda
9. Ekstremistlar ilgari surayotgan "O'zi yashab turgan yurtni tark etib, boshqa yurtga ko'chib ketish" g'oyasi nima deb ataladi?
- A) "takfir" B) "bay'at" C) "bid'at" D) "hijrat"
10. "O'n ikki Sezarning hayoti" asarining muallifini aniqlang.
- A) Gay Svetoniy Trankvil B) Maxatma Gandhi C) Yuliy Sezar D) Zbignev Bjezinskiy
11. 1937-yil 26-aprelda Ispaniya fuqarolar urushi paytida Germaniya Kondor legioni tomonidan quyidagi qaysi shahar bombordimon qilingan?
- A) Bilbao B) Pamplona C) Gernika D) Vitoriya
12. IRA qachon faol harbiy harakatlarini to'xtatganligini e'lon qildi?
- A) 1960-yilda B) 1970-yilda C) 1972-yilda D) 1980-yilda
13. Franko diktaturasiga qarshi tashkil etilgan separatistik tashkilot qaysi?
- A) RAF B) IRA C) ETA D) Ku-kluks-klan
14. Qaysi tashkilotning asosiy maqsadi Euskadi davlatini tuzish edi?
- A) Ku-kluks-klan B) Aum-Senrikyo C) ETA D) IRA
15. Trent universitetining radikal kayfiyatdagi talabalari qaysi tashkilotga asos solishgan?

- A) Aksilimperialistik yacheykalar B) “Qizil brigadalar” C) RAF D) IRA
16. Qizil brigadalar faoliyatining cho‘qqisi qaysi yillarga to‘g‘ri keladi?
- A) 1969-1983-yillar B) 1971-75-yillar
- C) 1978-1982-yillar D) 1977-1981-yillar
17. AQSHdagi irqchilik ruhidagi “oriylar millati” tashkiloti qachon tashkil etilgan?
- A) 1971-yilda B) 1972-yilda C) 1973-yilda D) 1974-yilda
18. Yaponiyada keng tarqalgan so‘l terroristik tashkilot qaysi?
- A) “Yaponiya qizil armiyasi” B) “Yapon hamkorligi”
- C) “Ku-kluks-klan” D) “Buyuk Yaponiya”
19. Tamil yo‘lbarslari quyidagi qaysi davlatning shimoliy qismini 2009-yilgacha to‘liq nazoratda ushlab turishdi?
- A) Shri Lanka B) Maldiv C) Filippin D) Indoneziya
20. Hashshoshiylarning ilk qurbanini aniqlang.
- A) Qirol Raymund II B) Monferratlik Konrad C) Saljuqiylar Bosh vaziri Nizom ul-Mulk
- D) Chingizzxonning nabirasi Hulogu
21. “Jamoa islomiya” terroristik guruhi qaysi davlatda faoliyat yuritadi?
- A) Pokistonda B) Indoneziyada C) Iroqda D) Afg‘onistonda
22. “Missioner” so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?
- A) tartibga soluvchi B) umidvor C) vazifa bajaruvchi D) o’zgartiruvchi
23. Vijdon erkinligi belgilangan Konstitutsiyamizning moddasini aniqlang.
- A) 28-modda B) 29-modda C) 30-modda D) 31-modda
24. Iyegovo shohidlari cherkovi qaysi shaharda mustaqil faoliyat olib bormoqda?
- A) Samarqandda B) Bo‘kada C) Chirchiqda D) Andijonda
25. Quyidagi qaysi din missionerlari “Dxarma Bhanaks” deb nomlangan?
- A) buddaviylik B) Iyegova shohidlari C) Krishnachilik D) Adventistlar
26. 1980 yillardan quyidagi qaysi atama qo’llanila boshlagan?
- A) “Yaqin Sharq” B) “Katta Yaqin Sharq”
- C) “Bir qutbli dunyo” D) “Ko‘p qutbli dunyo”

27. Quyidagi qaysi global miqyosidagi tahdid dinning siyosiylashtirilishiga misol bo‘ladi?

- A) demokratik fundamentalizm B) islomofobiya
C) harbiylashtirish D) tana a’zolari transplantatsiyasi

28. 1848-yilda kim qotillikni taqiqlash siyosiy kurashda qo‘llanilmaydi va yuzlab va minglab odamlarni jismonan yo‘q qilish “insoniyatning oliv manfaatlari” asosida oqlanishi mumkinligini ta’kidladi?

- A) Alfred Nobel B) Gay Foks C) T.Konyar D) Karl Geyntsgen

29. Quyidagi qaysi temperament egalari terrorchilik aktlarini sodir etishga eng kam moyil bo‘ladi?

- A) Melonxoliklar B) Sangviniklar C) Xoleriklar D) Flegmatiklar

30. Begona yoki g‘alati deb qabul qilingan narsalardan qo‘rqish yoki nafratlanishni aks etuvchi

- A) Ksenofobiya B) Islomofobiya C) Strangerofobiya D) personofobiya

“Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari”

fanidan oraliq nazorat savollari

3-variant

1. “Al-Vay” (“Ong”) jurnali qaysi terrorchi tashkilotga tegishli?

- A) Musulmon birodarları” B) “Hizb ul-Vatan”
C) “Hizb ut-tahrir” D) “Nurchilar”

2. Quyidagi qaysi guruh “gunoh manbalari” sifatida – kabare (kichik ko‘ngilochar maskan), kafe, spirt - vino zavodlariga qarshi qator teraktlar amalga oshirishdiildi?

- A) “Al-Qiyam” B) “Harakat ul-Mujohiddin” C) “Abu Sayyof” D) “Jamoa islomiya”

3. Vahhobiylar 1803-yilda qayerni egallab olgan?

- A) Muhammad ibn Vahhab B) Ahmad ibn Taymiya
C) Abdulloh ibn Sayfo D) Muhammad ibn Solih

4. Vahhobiylar 1803-yilda qayerni egallab olgan?

A) Madinani B) Makkani C) Karbaloni D) Toifni

5. Islomdagi bo'linishlar turi nechta?

A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta

6. Sunniylikda nechta fiqhiy mazhablar bor?

A) 3 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 5 ta

7. "Ixvon al-muslimun" terrorchilik tashkiloti rahbari bo'lgan shaxsni aniqlang?

A) Hasan al-Banno B) Ibn Taymiya C) Abu Saloh D) Saad Zag'lul

8. O'zbekistonda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi" qonun qabul qilinganidan necha yil o'tib "Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun qabul qilindi?

A) 15 yil B) 16-yil C) 17-yil D) 18 yil

9. Prezident Sh.Mirziyoyev taklif etgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi qachon qabul qilindi?

A) 2018-yil 20-sentyabrdan B) 2019-yil 18-fevralda

C) 2018-yil 12-dekabrdan D) 2019-yil 5-oktyabrdan

10. 2019-yildan buyon O'zbekiston Suriya, Iroq va Afg'onistonning ayollar va bolalarni qaytarish bo'yicha «Mehr» operatsiyalari orqali mojaroli hududlardan mamlakatga jami necha nafar kishi olib kelindi.?

A) 556 nafar B) 531 nafar C) 587 nafar D) 564 nafar

11. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"dagi oltinchi ustuvor "Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish" deb nomlangan yo'nalishining "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmalarini shakllantirish" sarlavhali maqsadi nechanchi maqsad hisoblanadi?

A) 82-maqsadi B) 83-maqsadi C) 84-maqsadi D) 85-maqsadi

12. Quyidagi qaysi terrorchilik tashkilotini butunlay bartaraf etish maqsadida "o'lim eskadroni" deb atalmish bo'linma tashkil etildi?

A) IRA B) RAF C) ETA D) BR

13. "Barcha amallar niyatga qarab bo'ladi" hadisi muallifini aniqlang.

A) Abu Muslim B) Abu Dovud C) Abu Iso Termiziy D) Imom Buxoriy

14. Musulmonni kofirlikda ayblash nima deyiladi?

- A) takfir B) muhojid C) mushrik D) salaf

15. Hozirgi davrda dunyoda eng xavfli kuchga aylanib borayotgan ekstremizm va terrorizmnинг kelib chiqishi, mohiyati, kimlarga xizmat qilishi, taraqqiyotga salbiy ta'sirini talabalarga tushuntirish va bu xavfga qarshi kurashda ularda yuksak bilim, ogohlilik va dahldorlik ko'nikmalarini shakllantirish "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" kursining ... tashkil etadi.

- A) predmetini B) maqsadini C) kategoriyalarini D) obyektlarini

16. "Kun tartibiga qo'yilgan masala, ya'ni, ijtimoiy-ma'naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q" – fikrlarini Prezident Sh.M.Mirziyoyev qachon va qaysi ma'ruzasida ilgari surgan?

A) 2017-yil 16-iyundagi "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida B) 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida C) 2017-yil 19-sentyabrdagi BMTning 72-sessiyasidagi nutqida D) 2018 yilning 27-mart kunlari Toshkentda "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida Afg'oniston bo'yich Toshkent xalqaro konferensiyasidagi nutqida

17. XII-XIII asrlarda hozirgi Iroq va Eron hududlarida maxfiy qotillar guruhini Yevropada nima deb atashgan?

- A) Hashshoshiylar B) Valeryanichlar C) Qarmatiylar D) Assasinlar

18. Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Ushbu fikrlar muallifini aniqlang.

- A) I.A.Karimov B) Maxatma Gandhi C) Sh.M.Mirziyoyev D) Zbignev Bjezinskiy

19. Quyidagi qaysi global miqyosidagi tahdid dinning siyosiylashtirilishiga misol bo‘ladi?
- A) demokratik fundamentalizm B) islomofobiya C) harbiylashtirish
D) tana a’zolari transplantatsiyasi
20. “Hizb ut-tahrir” qarashlariga ko‘ra musulmonlarning necha kundan ortiq xalifasiz yashashi harom” – fikri kimga tegishli?
- A) uch kundan B) to‘rt kundan C) besh kundan D) olti kundan
21. Quyidagi qaysi temperament egalari terrorchilik aktlarini sodir etishga eng ko‘p moyil bo‘ladi?
- A) Melonxoliklar B) Sangviniklar C) Xoleriklar D) Flegmatiklar
22. Iyegovochilikka “armageddon” tushunchasini kiritgan shaxsni aniqlang.
- A) Charlz Teyz Rassel B) Natan Gorner Norr
C) Frederik Uilyam Frans D) Iosif (Djozef) Franklik Ruzerford
- 23.O‘zbekiston Respublikasida nechta diniy konfessiya mavjud?
- A) 13 ta B) 14 ta C) 15 ta D) 16 ta
24. “Musulmon birodarlari” ekstremistik tashkiloti qachon va qayerda paydo bo‘lgan?
- A) 1928 yil Misrda B) 1980 yil Markaziy Arabistonda
C) 1953 yil Isroilda D) 1985 yil Sudanda
25. Konfessiya so‘zining ma’nosi?
- A) yo‘nalish B) e’tiqod qilish C) mazhab D) ibodat qilish
26. Qachondan ISHID terrorchilar to‘dasi o‘zлari “Islom davlati” deb nomladi?
- A) 2006 yildan B) 2001 yildan C) 2013 yildan D) 2014 yildan
27. Quyidagi qaysi qatorda ichki tahdid keltirilgan?
- A) El-yurt taqdiriga befarqlik B) Paternalizm
